

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Magistratura bo‘limi
“Tilshunoslik” kafedrası**

**“TASDIQLAYMAN”
Bo‘lim boshlig‘i
N.I.Asqarov**

“ ” _____ 2016 yil

**“HIMOYAGA QO‘YILDI”
Kafedra mudiri**

“ ” _____ 2016 yil

«Omon Muxtor asarlarining poetik tahlili»

MAVZUSIDA

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Bajardi: Yunusov Abdushukur

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: S. Qurbonov

ANDIJON – 2016

MUNDARIJA:

Kirish.....	4
I. Bob. Istiqlol arafasi hamda undan keyingi adabiy jarayonda Omon Muxtor ijodi	
1.1. “Ming bir qiyofa”ning ming bir “qiyofa”si.....	8
1.2. Kichik janrdagi ulkan qarashlar.....	21
II. Bob. Yozuvchi nasrida yashiringan po’rtana	
2.1. Omon Muxtor asarlarida xronotop.....	30
2.2. Navoiy timsoliga tavsif.....	55
III. Bob. Omon Muxtor she’riyatida inson ruhiyati jilolari va badiiy mahorat masalasi	
3.1. Omon Muxtor she’rlarida ijtimoiy-siyosiy mavzu va g’oyalar.....	67
3.2. Shoirning o’quvchi tasavvuriga go’zal “chizgilar”i.....	72
Umumiy xulosalar.....	84
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	86

*“Omon Muxtor – bilim ufqi keng, hamisha oldinga
intiluvchi, izlab topguvchi, o’z torini chalishga qodir yosh
qalamkashlardan. U o’zgalar ta’siridan tez qutulib olgan,
hamisha yangi so’z saralab aytayotgan, she’r nimaligini dildan
tushunib qalam tebratayotgan she’r mehnatkashlaridan. Bu
jihatdan Omon Husniddin Sharipov, Erkin Vohidov, Abdulla
Oripovlarga juda yaqin, ya’ni yillar sudralib yurmay,
kitobxonlarga tez tanilgan va sevilgan shoirlardan.
Omon Muxtor Buxoroda dunyoga kelgan va bolaligi shu
ulug’, yorqin shaharda kechgan. Buxoro o’zi yuzlab qalamkash
uchun umrbod mavzu bo’lgulik diyor. Omon she’rlarida ona
shahar manzaralari ta’sirbaxsh kuylanishi shundan. Uning
sozida falsafiy chuqurlikka mayl va quymalikka e’tibor ham
balki Buxoro sharofatidan. Axir, bizning Buxoro cheksiz falsafa,
buyuk tarix, tubsiz ilm-ku...*

*Mirtemir,
1973-yil”.*

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kun adabiyoti kechagisidan tubdan farq qiladi. Avvallari badiiy asarlar voqeliklar silsilasidangina tarkib topgan bo'lsa, bugungi kunda qahramonning ruhiy holatiga, ichki olamiga, tug'yonlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayrim hikoyalar hech qanday voqelik bayon qilinmasdan, faqat qahramonning "ko'z"i bilan atrofni kuzatish orqali ham yaratilmoqda va bu o'quvchini o'ziga jalb qila olmoqda.

1890-yilda "Psixologiya asoslari" asari orqali "ong oqimi" tushunchasi g'arbda ilk bor fanga olib kirilgan bo'lib, hozirgi kundagi adabiyot aynan shuning asosiga qurilishi lozimdir, nosir o'z oldiga 3 muammoni qo'yib olishi kerak, ya'ni, ong oqimi va syujet, ong oqimi va tasviriylilik prinsiplari, ichki monolog va badiiy xarakter masalasini qo'yib olgan holda ijod qilishi zarur. Shundagina adib bugungi kun o'quvchisini o'ziga qarata oladi, ijod mahsuliga bog'lay oladi. Xuddi shunday usulda ijod qilayotgan ijodkorlarimiz ham kam emas. Masalan, Muhammad Ali, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Asad Dilmurod, Otauli, Qamchibek Kenja, Nabi Jaloliddin, Sobir O'nar, Qo'chqor Norqobil, Normurod Norqobillarning asarlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Mana shunday yo'lga dastlabki qadamlarni qo'ygan nosirlardan biri Omon Muxtor sanaladi.

Har bir ijodkorning o'z qarashlari, maqsad-muddaolari bor, albatta. U aynan shu qarashlar yordamida ochib berishni maqsad qilgan muammoni yoritadi. Uni qay darajada o'qiguvchiga yetkazib bera olish esa yozuvchi-shoirning mahoratiga bog'liq. Omon Muxtor ijodini kuzatar ekanmiz, uning nasriy asarlarida ham, she'rlarida ham inson omiliga nihoyat darajada kuchli hurmat bilan qaralganining guvohi bo'lamiz. U qahramonni shunchaki tanlamaydi, ijobiy-salbiyga ham ajratmaydi. Hammasini teng, o'z bolasiday ko'radi va qolganlarda ham shunday tasavvur uyg'ota oladi. Siz uning qahramonlarini sevasiz ham, nafratlanasiz ham; erkalaysiz ham, xafalanasiz ham. Insonni to'la holda ideal darajaga ham olib chiqmaydi, yerga ham urmaydi. Shunchaki, borini boricha ochib beradi.

Yozuvchi-shoirning asarlarida ruhiyat old planga qo'yilgan bo'lib, qahramon siz va biz kunda yuz bor uchratadigan, ba'zan ahamiyat berib, ba'zan e'tiborsiz qoldiradigan voqeadan qattiq ta'sirlanadi. Tarix sahifasida bir qoracha o'rin egallamaydigan hayotiy lavhadan u butun boshli asar yarata oladi. Magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligini aynan Omon Muxtor asarlaridagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari orqali borliqqa qarashlarining ifodasi belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Omon Muxtor ijodiga qiziqish voqealarni aynan yaxlit keltirilmaganligi, romanlari tarkibidagi lavhalar bir-biriga bog'liq emasdek taassurot uyg'otishi, aslida esa bir umumiy ildizdan tarqagani bilan ham murakkab, ham qiziqarlidir. Ayniqsa, uning asarlarida inson ruhiyatini ochib berishga qaratilgan intilishlar yaqqol ko'zga tashlanib turadiki, bu oddiy o'quvchi va mutaxassisda ijodkorga nisbatan hurmat tushunchasini uyg'otadi.

Inson ruhiyati o'rganilish eng murakkab bo'lgan xilqat sanalib, bu bo'yicha ko'plab adabiyotshunoslar ish olib borganlar. Ko'plab tadqiqot va maqolalarda bu muammo u yoki bu jihatdan tadqiq, etilgan. Jumladan, B.Sarimsoqov¹, Ya.Qosimov², B.Aliev³, I.To'lakov⁴, B.Norboev⁵, J.Jumaboeva⁶, U.Hamdamov⁷ singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, professor Q.Yo'ldoshev⁸ning qator maqolalari xarakterlidir.

Mazkur katta va kichik ilmiy izlanishlarda XX asrning 20-yillaridan tortib, to 90-yillargacha bo'lgan o'zbek she'riyatida lirik qahramon ruhiy olami tadqiq etiladi.

¹ Саримсоков Б. Достонларда психологик тасвирнинг характери ҳақида баъзи мулоҳазалар // Пўлкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 2-китоб. –Тошкент: Фан, 1976. –Б. 106-114.

² Қосимов Я. Ўзбек шеъриятида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни (60 йиллар шоирлар авлоди ижоди мисолида): Филол. Фан.номз...дисс. –Т.: 1993.

³ Алиев Б. Ҳозирги ўзбек шеъриятида психологизм проблемаси: Филол.фан.номз...дисс. –Т.: 1994

⁴ Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини: Филол.фан.номз... дисс. –Т.: 1994.

⁵ Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: Филол.фан.номз... дисс. автореферати –Т.: 1996.

⁶ Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати: Филол.фан.номз... дисс. Автореферати. –Т.: 1999.

⁷ Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. –Б. 199.

⁸ Йўлдошев Қ. Кўнгил мавжлари // «Ўзбекистон овози». – 2001. – 10 март; Инсоний туйғулар жилваси // «Ёзувчи». – 2002. – 1 март; Яна ўша. Самимий туйғулар таровати // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». – 2002. – 1 март» Яна ўша. Изтироб суратлари // « Хуррият». – 2003- 24 сентябрь; Яна ўша. Адабиёт осмони чексиз // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». – 2004. – 8 октябрь.

Omon Muxtorning asarlari haqida adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonovning adib bilan o'zaro suhbatlarida aytgan quyidagi gapi juda o'rinli aytilgan: "Romanlaringiz meni ajablantiradi. Bunday uslub oldin bizda bo'lmagan. Ular chetdan qaraganda, quroq dasturxonni eslatadi. Buni "mozaika" ham deyishadi. Voqealar ba'zan bir-biri bilan bog'lanmagandek, bir-biriga go'yo nomutanosib joylashgandek. Ayniqsa, "Ayollar mamlakati va saltanati", "Aflotun", "Maydon" romanlari shunday. O'quvchi dabdurustdan idrok qilib olishga qiynaladi. Lekin boshqa tomondan qaraganda, bu asarlar qurilishini koinot harakatiga o'xshataman. Negaki, fazodagi jismlar va sayyoralardan har biri alohida, o'z holicha harakat qilayotgandek bo'ladi-yu, ko'zga ko'rinmas zanjirlar bilan bog'lanib, biri-birisiz turolmaydi".⁹

Tadqiqot maqsadi. Omon Muxtor asarlaridagi olg'a surilgan g'oyalar, qahramonlarning voqeliklar silsilasidagi ruhiy holatlarining ifodalanishi, borliq va inson o'rtasidagi munosabatning ko'rinishlari magistrlik dissertatsiyasining maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifasi: Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- O'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va Omon Muxtor ijodining undagi o'rnini o'rganish;
- Adib qalamiga mansub bo'lgan asarlarni to'plab, ularni o'rganilish sohasiga ko'ra saralab olish;
- Yozuvchi-shoir ijodidagi o'ziga xosliklar, uslublar uyg'unligi xususida fikr yuritish;
- Uning asarlarida shakl va mazmun o'rtasidagi muvozanatning qay darajada mutanosibligiga ahamiyat qaratish;
- O'quvchi tafakkuriga ta'sir etadigan darajada yaratilgan asarlaridagi ijodkorning badiiy mahoratini yoritib berish.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. Tadqiqotda Omon Muxtorning quyidagi romanlari, qissa va hikoyalar to'plamlari, she'rlari tahlil uchun tortildi:

⁹ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. B.267

“Ming bir qiyofa”, “Ayollar saltanati va mamlakati”, “Aflotun”, “Tepalikdagi uy”, “Ko’zgu ortidagi odam”, “Erkin uchayotgan qush”, “Osmondan tushgan odam”, “Uzun yo’lakdagi ikki kishi”, “Egilgan bosh”, “Qizgina”, “Moviy kitob” va boshqalar.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosi qilib muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimovning mafkuraviy-ma’naviy qarashlari qamrovida Omon Muxtor to’g’risida bildirilgan fikrlar, yozuvchi-shoirning Yo’ldosh Solijonov, Abduqayum Yo’ldoshev, Tohir Norimov, Ahmad Otaboylar bilan qilgan suhbatlari olindi.

Ishning ilmiy yangiligi. Bugungi kun fanida lingvistika va poetikaning tutashgan ildizini o’rganish, asarlarda tilshunoslik imkoniyatlardan qay darajada mahorat bilan foydalanilayotgani va o’quvchiga yetkazib berilishida so’z qo’llash san’atining ustuvorliklariga ahamiyat berish;

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tilimizdagi barcha so’zlar yig’indisi, sintaktik va leksik tuzilishlari, xullas, barcha til imkoniyatlaridan badiiy asarlarda ustalik bilan foydalanib, adabiy jarayondagi o’rni va ahamiyatini oshirish. Omon Muxtor asarlaridagi badiiy tasvir vositalarining o’rinli va maromida ishlatilishini tahlil qilish.

Ishning sinovdan o’tishi. Magistrlik dissertatsiyasi Andijon davlat universiteti O’zbek tili va adabiyoti kafedrasida ichki himoyadan o’tgan hamda kafedraning ilmiy seminarida muhokama qilingan.

Natijalarning e’lon qilinishi. Magistrlik dissertatsiyasi natijalari tadqiqotchining quyidagi maqolalari orqali e’lon qilingan:

1. “Muhabbat o’limdan kuchli” romanida Omon Muxtorning chin insoniy tuyg’ular tavsifi;
2. Omon Muxtor she’rlarida ijtimoiy-siyosiy mavzu va g’oyalar.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I Bob. Istiqlool arafasi hamda undan keyingi adabiy jarayon va Omon Muxtor ijodi.

1.1. “Ming bir qiyofa”ning ming bir “qiyofa”si.

Yozuvchi asar yaratar ekan, o'z yozmasida ko'rgan-kechirganlari, kimningdir boshidan o'tganlarini eshitgani xususida qalam tebratadi, asosan. Ammo Omon Muxtor qalamiga mansub bo'lgan “Ming bir qiyofa” ijodkor tasavvuri, xayoli, falsafasining mahsuli bo'lib yaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, undagi voqeliklarning ko'plariga inson ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay qolsa, ko'plari faqat tasavvurdagina bo'ladigan, ammo asarda nimagadir ishora tarzida qo'llangan, yana ko'plari diniy ta'limotimiz nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tuzilgan “marjon”dir. Unda insonning umri, undan keyin qabrdagi hayoti va nihoyat qayta tirilishi yoritib berilgan. Bu jihatlari, o'z ruhi bilan roman Markesning “Yuz yil tanholikda” hamda Bulgakoning “Usta va Margarita” romanlariga ancha yaqin turadi. Asar, unda olg'a surilgan g'oyalar, yozilishiga asos bo'lgan motivlar xususida muallifning o'zi quyidagicha fikr bildirib ketgan:

“Kim o'qisin-o'qimasin, ochig'ini aytishim kerak: bu – xayoliymi, falsafiymi, shunaqa bir asar!

Albatta, yozuvchi har qanday asarda o'zi kuzatgan – eshitgan, ko'rgan hayot haqiqatlarini aks ettiradi. Lekin baribir, bu asar ko'proq xayol mahsuli; men hayotdagi aniq voqealar, odamlarni – bo'yoq berib, umumlashtirib yuborishga harakat qilganman.

Asardagi hikoyatlarda, asosan, har xil odamlar uchraganidan, kimgadir ular bir-biriga deyarli bog'liq emasdek tuyulishi mumkin. Ammo ziyrak o'quvchi, nega uch hikoyat yaxlit asar deb atalgani, ma'no va mazmun nimadan iborat ekanligi o'zi ilg'ab oladi, deb o'ylayman.

Yana bir gap. Ushbu asarni barcha – dunyodagi bo'lgan, bor, tug'ilajak eng go'zal insonlarga bag'ishladim..."¹⁰

Asar uch hikoyatdan tarkib topgan bo'lib (muallifning o'zi ta'kidlaganidek), ular uch xil voqelikni, uch xil vaziyatni, uch xil toifa kishilarini aks ettirgan bo'lsa hamki, nozik didli o'quvchi ulardagi birlikni, yakma'noni ilg'ay oladi, albatta. Adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonov adib bilan suhbatida aynan mana shu mavzu yuzasidan to'xtalib o'tadi. O'z fikrini bildirish bilan bir qatorda, yozuvchining o'zi ayni masala yuzasidan izoh so'raydi:

Yo'ldosh Solijonov: Romanlaringiz meni ajablantiradi. Bunday uslub oldin bizda bo'lmagan. Ular chetdan qaraganda, quroq dasturxonni eslatadi. Buni “mozaika” ham deyishadi. Voqealar ba'zan bir-biri bilan bog'lanmagandek, bir-biriga go'yo nomutanosib joylashgandek. Ayniqsa, “Ayollar mamlikati saltanati”, “Aflotun”, “Maydon” romanlari shunday. O'quvchi dabdurustdan idrok qilib olishga qiynaladi. Lekin boshqa tomondan qaraganda, bu asarlar qurilishini koinot harakatiga o'xshataman. Negaki, fazodagi jismlar va sayyoralardan har biri alohida, o'z xolicha harakat qilayotgan bo'ladi-yu, ko'zga ko'rinmas zanjirlar bilan bog'lanib, biri-birisiz turolmaydi.

Omon Muxtor: Osmon uzoq, Yerga tusha qolaylik. Mening yozganim pista chaqqanday bir qur, yengil-yelpi o'qiladigan asarlar emas. Ular o'quvchini sal fikrini yig'ib, o'ylashga undaydi. Yetarlicha qiziqish bilan o'qilayotganligiga qaramasdan, shunday. Umuman, mumtoz adabiyotga, jahon adabiyotiga e'tibor bersangiz, aslida bu eski maktab. Men shaklni ahamiyatsiz, deb bilmayman. Shakl nima? Ma'lum bir mazmun solingan idish. Ichidagi mazmun bo'lmasa idishga hojat yo'q. lekin aksincha, idish bo'lmasa, mazmun ham uni “kutib” qolaveradi. Demak, bular ikkisi teng huquqqa ega kategoriyalar. Mazmun – muhim, lekin u joylashgan shakl birinchi bo'lib ko'zga tashlanadi, mazmunning “baho”sini belgilaydi! Mafkura oldinga chiqqan yillar mazmun birinchi o'ringa o'tib ketib, shaklga bepisand qaralgan edi. Siyosat tazyiqi ostida, yangi sog'ilgan sut eski paqirda qolavergan yoki beo'xshov bir idishga solingan! Uni qozonda qaynatib,

¹⁰ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.3

qaymog'i bilan birga chiroyli bir piyolada, kosada oldingizga keltirib qo'yishmagan! Mazmun qanchalik yozuvchining san'atkorlik darajasini ko'rsatsa, shakl ham shunchalik ahamiyat kasb etadi. Romanlar bir-birini takrorlamasligi shakl ustida ishlashdan ham kelib chiqqan... "Quroq" yoki "mozaika" deganingizga kelsak, Mirtemir aka bir she'rida: "Quyunlarda qolganimda, changday taralganimda, yuz bir vayron bo'lganimda, yuz bir yaralganimda..." – deb yozgan. Inson hayotining o'zi "quroq dasturxon" emasmi? Munosabatlar ham "mozaikadan", "nomutanosiblik"dan iborat! Yagonalik, Butunlik faqat Yaratgan Tangriga xos, telba bu dunyoda bandaning qismati doim ma'lum darajada sargardonlikdir. Bunday qismat Odam Ato Yerga tushganlaridan boshlangan... E'tibor bergan bo'lsangiz, mening yozganlarimda mana shu "qismat to'foni" katta o'rin tutadi. Qahramonlar uchun umumholat – ular birdek harakatda, asosan, notinch ko'yda paydo bo'lib, asar nihoyasida ham shu ko'yda "chiqib ketishadi". Abdulla Hakimni eslaysizmi, Valijon yoki Mirza G'olibnimi, barchasi shunday. Romanlarda voqeaning o'zi ham 'qoq bel'idan boshlanadi, asar oxirida voqea ipi "chirt uzib" tashlanadi. Qisqasi, hayot shu. Mustaqillik davri kechagi "balandparvoz", "yalang'och" mafkura ustidan chiziqli tortib, bizni Yerga tushish, Mazmun kabi Shaklning ham muhim ekanligini tushunishga o'rgatdi.¹¹

Endi asarning o'zi haqida gaplashadigan bo'lsak, roman Abdullaning ziyofatdan chiqib, o'z uyiga tomon yo'l olishidan boshlanadi. Vaqt allamahal bo'lib qolganligi sababli uyigacha bo'lgan besh chaqirim yo'lni poyi-piyoda bosib o'tishga azmi qaror qilib turganida qandaydir "yapasqi" avtobus kelib qoladi. Qahramonimiz unga minib oladi. Ammo u kutilmagan vqelikning ustidan chiqadi: avtobusda na yo'lovchilar, na haydovchi bor edi:

"Boshqa odam bunday sharoitda qo'rqqanidan o'zini yo'qotib, ayyuhannos solishi mumkin edi. U esa, tabiatan ancha bosiq, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqavermaydigan kishi bo'lgani, buning ustiga, yaxshigina kayfi borligidan,

¹¹ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.268

pinagini ham buzmedi. Qani, ko'raylik-chi, buyog'i qanday voqea yuz berar ekan, deb o'ylab, yumshoq o'rindiqqa o'zini tashlaganicha, mudrashga tushdi".¹²

Ayni shu lavhada odamni o'ylashga majbur qiladigan, biroz fikrlashga chorlaydigan mavzu yuzaga keladi. Adib romanga kiritgan "yapasqi", "haydovchisiz" "avtobus" asli nima? Bu obraz orqali nimani yoki kimni ko'rsatib beryapti, qo'lini qayoqqa qaratib "bigiz qilyapti"?! Nega qahramon ortiqcha vahimasiz bu holatni qabul qilib, yana "yumshoqqina o'rindiqqa o'zini tashlaganicha, mudrashga tushdi"? Nega bundan qutulish chorasi haqida bosh qotirmadi? Nima uni shunchalik beparvo bo'lishga undadi, nahotki, mastlik buning bariga sabab bo'ldi?!

XX asr boshida Turkiston zaminiga o'z hukmronlik davrini o'rnatgan ruslarning bergan va'dalari, qurmoqchi bo'lgan davlatlari xususidagi mulohazalari insonlarni ishonishga, kelajak haqida shirin orzular qilib mast bo'lishga undadi. Ayniqsa, Abdulla kabi "dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan kishi"lar uchun bu oddiy holday ko'rindi, butkul o'zlarini "avtobus" izmiga topshirib qo'yishdi. Asli mashinaga minganlarning manzilni bilishga, u haqda xulosa kelishga yarasha zakovatleri ham bo'lmaganidan, o'zlari tushunmagan, anglolmagan siyosat – "haydovchisiz avtobus" ichiga ko'r-ko'rona joylashib oldilar.

"Ko'p o'tmay, haydovchisi yo'q mashinada uyimi, unga dahli yo'q bir tomongami – ketayotganini ham unutib, shirin o'yga tolganicha, bir paytlar yoqtirib qolgan qizning ismini shivirlab, oshanga bag'ishlab yozgan she'rini baland ovozda, qiroat qilib o'qiy boshladi:

Sizga ochiq
Mening bag'rim,
Mumkin unga
tig' sanchish.
O'zimniki alamlarim,
Sizdan

¹² Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.5

tuymayman ranjish”.

Avtobusga minganlar keyinchalik ham o'z fikrlaridan qaytmadilar, bo'ysunish davom etdi. Qaytish qayoqda, qaytangga, o'zlarini butunlay topshirib, o'zlari uchun dahlia yo'q qarashlarga ham amal qila boshladilar va bundan huzur olib, she'rlar yozishdi. Qahramonning sevgilisiga atagan she'ri ham aslida tuzumga kechagi kun kishisining izhori emasmikin?!

Keyinchalik asrning ikkinchi yarmida odamlar tushuna boshladilarki, “avtobus”ning niyati buzuq. Ularni o'zlari uchun umuman yot, hatto, qaytib kelishning iloji bo'lmagan tomonga boshlab ketmoqda, avvalboshda berilgan va'dalar endi bekor. Odamlar chiqishga harakat qila boshladilar. Afsuski, endi kech, qopqalar allaqachon mahkam bog'lab bo'lingan:

“U hamon qo'rquv-vahimani xayoliga keltirmay, shunchaki, bu ish yaxshilikka olib bormaydiganga o'xshaydi, qandoq voqea ro'y berishini kutib o'tirmasdan, mashinadan tushib qo'ya qolsammikin, deb o'yladi. Shunga shaxd etib, o'rnidan sapchib turganicha, eshikni zarb bilan bir-ikki tepid. Ammo bundan hech qanday natija chiqmadi: qopqa mustahkam edi!

Umrida ishi bo'lmaganidan mashina tilini tushunmaganiga qaramay, haydovchi o'rniga o'tib o'tirgancha mashina to'xtatish, qopqalarni ochishga jazm etgisi keldi. lekin bunga harakat qilishga uringani zahoti, vulqon yaqinida turgan odamdek, qattiq silkinib, orqaga uchib ketdi. U, chamasi, boshqa bir joydan boshqarilayotgan yapasqi mashinaning telbaligidan ajablanib qolaverdi”.¹³

Bu epizodda keltirilgan haydovchi o'rniga o'tib boshqarishga urinish, adibning boshqa bir asaridagi G'oziddin timsoliga ishora. Yodingizda bo'lsa G'oziddin Haqnazarov va u kabi amaldor, ammo millat “chirkindi”lariga qarshi kurashishni maqsad qilib, Haqnazarovning qiziga uylanadi, amalga o'tiradi. Ammo “boshqa bir joydan boshqarilayotgan yapasqi mashinaning telbaligidan ajablanib qolaveradi”, o'zi ham ularning qiyofasiga kirib qolganini sezmaydi.

¹³ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.6

Asarda korchalonlar qo'liga tushib uzoq va ko'p azoblar ko'rgan Abdullaga so'nggi qavatdagi korchalon tomonidan yigitlarga berilgan buyruq – “Bu yigitni katta yo'lga kuzatib qo'yinglar...” – o'zgacha ta'sir qildi:

“... katta yo'l to'g'risidagi buyruqni eshitgach, yuragida umid yilt etdi. Ey Xudo, nahotki, butun qiynoqlar orqada qolib, menga qaytib ozodlik nasib qilyapti, deb o'yladi”.

Bu nido 80-90-yillar kishilarining barchasining yuragidan chiqmaganmidi? Hammasi erta-indin ozod bo'lishga, o'z orzusi, o'z dardi bilan yashashga umid bog'lamayotganmidi – ha, aynan shunday edi!

Ammo... Ko'plab shu orzu, ezgu maqsad yo'lida bel bog'lagan o'g'lonlar ozodlikni ko'rmay olamdan o'tishdi, Abdulla Hakim singari. Uni yigitlar katta yo'lga emas, “katta yo'l”ga kuzatib qo'ydilar. Ozodlik sari arang qadam tashlashga urinayotgan tanni ortiq qiynab o'tirmadilar...

Omon Muxtor o'z asarida aytmochi bo'lgan fikrlaridan yana biri bu odamlarning befarq, e'tiborsizliklari edi. Bo'lmasa, aslida Abdulla Hakim bo'lgan kimsani korchalonlar ham, idoradagilar ham, hatto, Halima ham Burxon Sharif deb o'ylaydimi? Burxon Sharifning o'z xotini ham tanimaydimi?

Keyin esa qabrdagi azoblar haqida yozar ekan ularning naqadar dahshatli ekanini dinimizda keltirganiday tasvirlab, insonlarga u dunyoda barcha qilmishlari uchun javob berishini, bu dunyoda istalgan odamni aldashi mumkin-u, u yoqda mumkin emasligini ta'kidlaydi:

- Isming nima, osiy banda?! – so'radi undan ikki farishtadan biri.
- Menmi? Men Burxon Sharifman, - dedi u jasadiga ishora qilib.
- O'yinning hojati yo'q, osiybanda! Barcha o'yinlar narigi dunyoda qoldi. Tirik odamlarga xos bema'niliklar sen uchun tugadi. To'g'risini gapir, - dedi farishta.¹⁴

Abdulla Hakim qabrda ming azoblarda yotganida qabri tepasiga Burxon Sharifning xotini, qarindoshlari, idoradagilar kelib-ketib turishdi, nihoyat bir kuni kutilmaganda, qabrdagi “Burxon Sharif” – Abdulla Hakim oldiga chinakam

¹⁴ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.39

Burxon Sharifning o'zi tashrif buyuradi. Uning ko'z yoshi to'la aytganlaridan o'quvchi o'sha zamon kishilari, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, naqadar bee'tibor bo'lganidan ozurdalanadi:

“...Qaytganimdan so'ng nimalar bo'lganini ham senga aytib beray. To'g'ri uyga borishga yuragim betlamay, idoraga qarab yugurdim. Idora binosi peshayvoniga mening qora hoshiya bilan o'ralgan kattakon suratim osib qo'yilgan. Xo'p, bu endi aniq edi. Lekin uzun yo'lakda Hasan bilan Ochil gaplashib turishgan ekan. Meni ko'rib esxonalari chiqib ketadi, deb o'yladim. Qayoqda! Qo'llarini shop qilib, Abdulla, odam ham shunaqa beg'am bo'ladimi, axir, biz Burxon Sharifdan ayrilib qoldik-ku, deyishdi. Ularga indamay, boshqarma boshlig'ining xonasiga kirdim. Abdullajon, o'zing bilasan, hozirgi odamlar birovga diqqat qilib qarashmaydi, kishining qorasini ko'rishadi, xolos, o'zini ko'rishmaydi. Boshliq ham menga, Abdulla, intizomni buzganing uchun senga hayfsan e'lon qildik, ishingni tuzatmasang, o'zingga yomon bo'ladi, hozir esa yigitlar bilan Burxon Sharifnikiga borib, bizning nomimizdan yana bir karra ta'ziya bildiringlar, nima yordan kerakligini so'ranglar, deb qoldi. Iloj-noiloj, Hasan bilan Ochilni yonimga olib, uyga bordim. Aslida, Halimani ogohlantirib, boshimizga qanday musibat tushganini oldin tushuntirib, keyin bormoqchi edim. Ammo, hamma adashganda ham, Halima adashmaydi, ayol kishi erini hididan biladi, balki ishning shunday tezlashgani ma'quldir, degan xayol bilan jur'atlanib, ostona hatladim. Ochig'ini aytsam, ishonmaysan! Boshqalarga o'xshab suyukli xotinim ham menga diqqat qilib qaramadi! Hamrohlarim shoshib meni Abdulla deb tanishtirishgach, negadir yuzini battar chetga burdi. Nihoyat, demak birga ishlagan ekansizlar, lekin siz bu uyga kelmasligingiz kerak edi, deb qo'ydi. Men tushunmayapman, biron payt Halima sendan tasodif ozor chekkanmidi, Abdullajon?! Xotinimga qo'shilib, bolalarim ham har qachongidek bunday quchog'imga otilishgani yo'q. shunisi menga, ayniqsa, og'ir botdi!”¹⁵

Asarda, shuningdek, hayot tugab, qiuomat bo'lishi, bandalar amaliga qarab jannatga yoki jahannamga ravona bo'lishlari bayon qilingan. Abdulla Hakim

¹⁵ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.43

nomai a'molida osiy banda deya yozilgan bo'lib, uni do'zaxga itqitadilar. U yerdagi qiynovlar bu dunyonikidan, hatto, qabrdagidan ham og'ir ekanini ko'rgan Abdulla nega bunday jazolarga loyiq ko'rilganini farishtalardan so'raydi, ammo farishtalar o'rniga o'zining tanasi, qo'l, oyoq, ko'z, quloqlari shovqin solib javob beradi:

“Senga necha bor aytish kerak! Sen yotib-turish, yeb-ichish, kiyinishdan bo'lak narsani o'ylamasding! Sen oqimga tushgan has eding, oqim qayoqqa olib borsa, ketaverarding. Umringda ma'no-maqсад yo'q edi. Sen o'zingga qancha bino qo'ymagin, ustring, tanang singari ruhing ham pok emas edi. Shu boisdan seni odam deb atash qiyin edi...”¹⁶

Keyingi vaziyatda unga nisbatan yuklangan ayb o'z zamoni – XX asrda, O'rta Osiyoda yashagan barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan gunoh bo'lib, bundan Abdulla Hakim ham, qolganlar ham tona olmas edilar. Bu Ollohni unutgan xolda shaxsga sig'inish, haykallarni ulug'lash edi:

“Sen Xudoga ishonarding. Shuning barobarida shohlar-arboblar, degandek dunyoda hukmini o'tkazib yashagan, o'zini butun hayotning xo'jayini deb bilgan qaysidir kibor, manman kishilarga Xudodan ham ko'proq ishonarding! Ular senga hayotdan bo'lak, tabiatning ustidan ham hukmron bo'lib tuyulishardi! Sen, shu boisdan, Xudo emas, ularning sha'niga tegadigan bir og'iz so'zni ham aytishdan qo'rqarding. Aksincha, idoradagi ishingda ham, birovga ko'rsatib-ko'rsatmay yozgan hattoki she'rlaringda ham ularning nomini tilga olmay tura olmasding! Haykallari, suratlari – shakllarga astoydil sig'inarding. Sen bamisoli bir butparast eding!..

Abdulla dong qotib qoldi.

Bu – aslida, Abdulla bilan birga, uning atrofidagi barcha odamlar, zamondoshlarining ham gunohi edi. Biroq, shoir bo'lganidan, bu gunoh, aftidan, unga yuklangan edi!”¹⁷

¹⁶ Ўша асар Б.56

¹⁷ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарқ. Т. 1994. Б.57

Xuddi shu mavzuni Omon Muxtor o'zining "Erkin uchayotgan qush" turkumiga kiritilgan she'rlaridan birida alohida ta'kidlab o'tgan edi:

Hayotga
Bermoqchi bo'lishib sayqal,
Sig'inmoqni istab
goh shom, goh sahar –
Odamlar qo'ydilar
ming yo'sin haykal,
Yashnab-bezansin, deb
Qishloq va shahr.

Endi kirsangiz,
Bu yurt haykalzor,
Hilvat go'shalarda
topilar haykal.

Bu safda
qotillar, jallodlar ham bor,
Ehtiromga turar
Barchasi mahtal.¹⁸

Asarning ikkinchi bir bo'lagi hisoblangan "Olisdagi odam" hikoyati ajib manzara bilan boshlanadi. Bir xilda, odatdagidek davom etayotgan kunlarning birida, to'yqus to'zon ko'tariladi, ortidan yomg'ir yog'adi. Keyin ham shamol tinay demaydi, aksincha, kuchayib boradi. Undan ko'plab daraxtlarga ozor yetadi, tomirlari bilan qo'poriladi, uylarning tomlari havoda uchadi. Nihoyat:

"Qadimiy obidalar, eski binolar tegrasida, bolaxonali uylarni oralab o'tgan ingichka ko'chalarda uvillab-tentiragan shamol to'yqusdan o'zini katta ko'chaga otdi. Shahar markazidagi uch-to'rtta ko'p qavatli imorat atrofida notinch aylanib, bular orqasida ajralib turgan – marmardan tiklangan to'qqiz qavatli koshona poyiga bosh urishga tushdi... Besh-o'n hamladan so'ng, egovlagandek koshonani

¹⁸ Мухторов О. Эркин учайётган қуш // Шарқ юлдузи. 1991. №1. – Б.78

tag-tubidan ko'chirib, uni birdan burgutdek qanotlariga yuklaganicha, shahardan olisga – allaqayoqlarga olib ketdi".¹⁹

Eng qizig'i, o'zi kichkinagina, nima voqea sodir bo'lsa, hammaga birdek eshitiladigan bu shaharda yuqoridagi voqea umuman bo'lmaganday qabul qilindi. Hech kim bunga ortiqcha e'tibor bermadi, e'tibor berish qayoqda, sezmad, bilmadi ham. Vaholangki, ushbu to'qqiz qavatli marmardan tiklangan bino hammaga otning qashqasiday tanish edi.

Buning sababi nimada? Yozuvchi, muallif bu bilan nima demoqchi, nimaga, aynan, nimaga ishora qilmoqda?

Barchaga ma'lumki, XX asr boshida tarkib topib, o'z boshidan ikkita Jahon Urushini o'tkazgan, asr so'nggiga qadar umr ko'rgan katta davlat – SSSR davlati bor edi. Ammo u, kutilmaganda(kutilganda ham) 1991-yilga kelib parchalanib ketadi. Parchalanadi-yu, butun olam go'yo buni tabiiy holday qabul qiladi, hech kim ahamiyat ham bermaydi. Adib ayni shu voqelikka ishora qilayotgan bo'lsa ne ajab?!

Ikkinchi hikoyatning bosh qahramonlari Sadijon va Gulhumor bo'lib, Sadijon o'ziga yarasha hurmatga sazovor bo'lgan doctor, Gulhumor mana shu to'qqiz qavatli binoda ishlaydigan hodim bo'lishadi. Ularning tanishuvi hali Gulhumor ishga joylashmay, hayotidan nolib yurganida, yuragi bezovta qilib, Sadijonning oldiga davo topish uchun kelganida sodir bo'ladi. Sadijon garchi o'zining sohasiga taalluqli bo'lmasa-da Gulhumorning dardiga quloq tutadi. "Kechalari yotganida, muttasil havo yetishmaydigan, yuragi qattiq qisadigan" bu qizga u bir qancha kitoblar berib, o'qishini va shaharning sharq tomonidagi avliyo maqbarasiga har kuni nahorda borib, chashmadan suv ichishini tayinlaydi. Oradan biron hafta o'tib, yana qabulga kelgan qizning holati ancha yaxshilangan edi. Shunday kelib-ketishlar oqibatida ularning o'rtalarida munosabat paydo bo'ladi. Keyin Gulhumor boyagi binoga – "Tarix va Madaniyat" degan tashkilotga – ishga kiradi. Qiz uchun bu yer obro'li, viqorli bo'lib ko'rinsa hamki, yigit uchun also

¹⁹ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.62

unday emas, u bu joyda, ta'bir joiz bo'lsa, xazar qilar darajada edi. Nafaqat u, balki...

“Umuman, “Tarix va Madaniyat” deb nomlangan muhtasham dargohga shaharchada odamlar allanechuk shubha bilan qarashar, iloji bo'lsa yaqin yo'lamaslikka harakat qilishardi. Ular bu tashkilotdan qandaydir qo'rqishardi!

Tashkilot Tarix va Madaniyatni gullatish shiori ostida qadimiy obidalar – masjid va madrasalarni buzish, ming yillik ko'rkam hozuvlarni ko'mib tashlash, qabristonlarni toptash, ota-bobolardan qolgan eski kitoblarni yoqish bilan shug'ullanardi. Tashkilotdagilar, ularga e'tiroz bildirgan har qanday kishiga, ishchi bilan dehqonga buning aloqasi yo'q, ishchi bilan dehqon buni tushunmaydi, deb gap uqtirishardi...”²⁰

Bu esa shahardagilar kabi Sadirjonga ham, albatta, yoqmas edi. Eng yomoni, tashkilot nihoyat yigit qizga taklif qilgan va shifo topishiga sababchi bo'lgan shahar sharqidagi maqbara va chashmani ham buzadi. Shu tufayli kunosabatlarga biroz putur ham yetadi. Mana shu nuqtada adib tashkilotdagilarning bosh maqsadlari haqida ochiq-oydin yozadi:

“Shu kuni ko'rishganlarida, u Gulhumorga zahrini to'kdi:

- Nega o'zingiz shifo topgan maqbarani buzasiz? O'zingiz suv ichgan chashmani nega ko'masiz? Nega?

Gulhumor bir lahza qizarib, bo'ynini qisdi:

- Men bunday qilganim yo'q. Tashkilotdagi boshqa odamlar...
- Xo'p, o'sha boshqa odamlar nima deydi? – so'radi titrab-qaqshab Sadirjon.
- Ishchi bilan dehqon, oddiy xalq manfaati...
- Bu ular uchun niqob, albatta. Jaholat, savodsizlikdan manfaat

chiqadimi? Chinakam tarix, chinakam madaniyatsiz ishchi-dehqonning o'zi molga aylanmaydimi? Xalqni qul qilib yuborgan tashkilotingiz...

²⁰ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарқ. Т. 1994. Б.74

- Bunday narsalar bid'at, xurofot, eskilik sarqiti, deyishadi. Shular bo'lmasa, xalq baxtli yashaydi, o'tmishni qo'yib, kelajakni o'ylash kerak, deyishadi...

- O'tmish insonning tarjimai holi! Unutib bo'lar ekanmi? Xo'p, maqbarasi buzilgan avliyoning aqalli kimligini eshitganmi tashkilotdagilar?

- Men bilmasam, - pichirladi Gulhumor.

- Boshqalaringiz ham hattoki xayoliga keltirmagan! Bu avliyo, masalan, Konfutsiyga o'xshash buyuk faylasuf bo'lgan. Atrofiga shogird to'plab, halol qo'l mehnati bilan kun ko'rishga o'rgatgan. Dunyoda ham jism, ham ruhni pok saqlashga chaqirgan. Buning nimasi sarqit?! Chashmani oling. U – yer qa'ridan otilib chiqqan toza suv edi-ku. Bir payola ichgan odamning badanidagi g'uborlar yuvilib ketardi. Shu – bid'atmi?! Yo'q, siz bunaqa tashkilotda ishlamasligingiz kerak...”²¹

Hamma “Tarix va Madaniyat” deya nomlangan tashkilot, unda ishlaydigan kimsalarga nisbatan nafrat bilan qaraganda, ularning fikr-u xayolini faqat buzish, yo'q qilish, toptash, uloqtirish egallab olgan deb ham bo'lmas edi. Ko'plar bu yerda majburan ishlayotgan bo'lib, hatto o'z qilayotgan ishlari chinakam jinoyat ekanini, o'zlari millat oyog'iga bolta urayotgan buyuk jinoyatchilar ekanini sezar, his qilib yashar edilar. Ular ham bu qilmishlari millatning o'tmishini, ota-bobolari, ajdodlarining sharaflari, ezgu amallarini o'chirib tashlashayotganini bilishsa ham hech biri bunday qilish yaramaydi, bunday qilmaslik, kerak, aksincha, imkon qadar tarixiy obidalarni qayta tiklash, milliy qadriyatlarimizni ulug'lash lozim, deb baralla ayta olishmas edi.

Buni muallif romanning ichiga ham kiritib ketgan. Tashkilot rahbari Kabirov bilan Gulhumor o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat tarkibida boshliq tomonidan shunday fikrlar bildiriladi:

“... Sizlar yoshsizlar, bilmaysizlar. Men yoshim oltmishdan oshdi, umrimda ko'rmagan narsam qolmadi... Xo'sh, menga shahardagi mana shu butun masjid-madrasalar buzilgani yoqadi, deb o'ylaysizmi?! Ayniqsa, hovuzlar bilan

²¹ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.76

quduqlarga jonim achiydi. Chetdan yetti yot begonalar, g'ayridinlar kelib, bizning tariximiz, madaniyatimizga sig'inishadi. Biz shu tuproqning bolasi, musulmon farzandlari – o'zimiz bor narsani buzamiz, ko'mamiz. Nega? Iloj yo'q, bildiyizmi?! Bizga shunday ko'rsatma berilgan. Yo'nalish shu... Bizdan yuqorida katta-katta korchalonlar, devday odamlar bor. Qo'g'irchoqbozga o'xshab, ip o'shalarining qo'lida, bizni faqat o'ynatishadi... Xo'p, ular ichlarida Xudoga ishonishmaydimi, qo'rqishmaydimi?! Ishonishadi, qo'rqishadi. Lekin nafs balosi ularning tinchi-oromini o'g'irlagan. Ustunlik qiladi! Ular xalq o'zining tarixini, madaniyatini bilmasin, buning ustiga, sharoitdan qiynalib, ko'z ochishga imkon topmasin, deb xalqniqullikda saqlash uchun shunday qilishadi! Bizning qo'limiz bilan shaharni vayronaga aylantirib, o'zlari eski shaklda nimadir qurib ham qo'yishadi. Ular hozirgi eng hashamatli masjid ham ming yillik obida bo'lolmasligini yaxshi bilishadi. Bizni yomon ko'rgan xalq ulardan norozilikka bormasin, hamma ishning boshida ular turishganini tushunmay, chalg'isin, deb shunday qilishadi! Xalqni qul holiga solib, aslida, ular, masalan, yuz ming so'z topishgan bo'lsa, ming so'mini sarflashadi, xolos. Bu – bitta shaharni yemirib, yuzlab odamni o'ldirib, to'rtta kishiga yorliq topshirganday gap! Lekin sho'rlik xalq ko'pincha buning fahmiga yetmaydi! Ular bo'lsa, odamlardan tashqari, shu bahonada Xudoning ham ko'nglini olgilari keladi..."²²

Voqealar qanday yakun topmasin, adibning maqsadi insonlar tafakkurida kechagi kunlarning sovuq lahzalarini, bo'ronlarini chizib, ularga nisbatan yuraklarda ko'milib yotgan tuyg'ularni oshkora etish edi. Asar yakunida buning uddasidan chiqadi. Tuzum necha-necha Sadirjon va Gulhumorlarni ayirdi, qancha Abdulla Hakimlarni boshqa bilan adashtirib erta dunyodan ko'z yumishiga sabab bo'ldi, nechtalab Burxon Shariflarning ketidan minglab korchalonlar tushib, payini qirqishga intildi. Nihoyat, bularning hammasi barham topib, ozodlik, erkinlik degan tushunchalar sal qolsa qotib, qorayib qolgan dillarga qayta tashrif buyurdi.

²² Мухторов О. Минг бир киефа // Шарк. Т. 1994. Б.102

1.2. Kichik janrdagi ulkan qarashlar.

Dunyoda har narsaning o'z ahamiyati, o'rni, qadr-qiymati, fayz-u tarovati bo'lganidek, badiiy adabiyotda ham har qaysi janrning o'z tutgan "yalov"i – boshqalardan ustun, yutuq tomonlari bor. Adabiyot qadim-qadimlardan insonlarning ma'naviyati, ruhoniyatini porlatish, ziyoga to'ldirishga xizmat qilgani barchaga ayon, shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda adabiyot janrlarini olamdagi yoritgichlar bilan mengzasak, ularga qiyoslasak xato bo'lmas, ehtimol. Masalan, roman janri butun bir davr ustida, o'nlab, balki yuzlab taqdirilar silsilasida go'yo quyosh yanglig' nur sohib, ularni o'quvchi ko'ziga, shuuriga yarq etib ko'rsatib qo'ysa, hikoya sahnada rol o'ynayotgan aktyorninggina ustiga tushiriladigan chiroqqa o'xshab butun boshli davrning emas, uning mingdan, milliondan bir qismi bo'lgan ayni bir voqelikni yoritadi, ko'z oldimizda gavdalandiradi.

Hikoya bir qarashda osondek – bir voqeani shunday qog'ozga tushirilsa bitadiganday – taassurot uyg'otadi. Ammo uning ham o'ziga yarasha talablari, qonun-qoidalar bor: istalgan voqelik ham hikoya bo'lavermaydi. Inson hayoti davomida har kuni yuzlab voqealar girdobida yashaydi: ko'plarida o'zi bosh qahramon rolini "o'ynaydi", ayrimlarida epizodlarda "qatnashadi", yana qanchasini tomoshabin sifatida kuzatadi. Shu voqealar "to'p"idan o'quvchiga badiiy estetik ta'sir o'tkazadiganini, ma'naviy ozuqa bo'la oladiganini, tarbiyaviy ahamiyatga egasini to'g'ri tanlay olish, uni ixlosmandlarga yetkaza olish – "yedira" olish hikoyanavisning mahoratiga, qalamining qay darajada taroshlanganligiga bog'liq.

Ushbu janrda qalam tebratayotgan ijodkor o'z gardaniga nihoyatda og'ir bo'lgan ma'suliyatni ortib oladi, zero kichik hajmga o'z qarashlarini, o'y-fikrlarini singdirib yuborish oson emas. Xalqimizda bir gap bor: "Biror davlatning bugunidan xabardor bo'lmoqchi bo'lsang, bozori va mozoriga bor", shu haq so'zga, ta'bir joiz bo'lsa, yana qo'shimcha sifatida "hikoyalarini o'qish"ni ham

aytsak bo'lar. Axir hikoya davrning bugungi kuni, ruhini o'ziga olgan, ko'zgu sifatida ababiyot ishqibozlariga tutadigan janr.

Hikoya janrida ijod mahsullari qancha ko'p va xo'p yozilmasin, e'lon qilinmasin – unga bo'lgan ehtiyoj aslo so'nmaydi. Xalqning bugungi kuni, yutuq-kamchiliklari, turmush tarzi, qarashlari, orzu-o'ylari aynan shu janrda ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu janr har qancha “tezpishar” bo'lmasin, uni “soldi-pishdi” tarzida “tanavvul qiluvchi”ning oldiga qo'yib bo'lmaydi. Hozirgi kunda hamma narsa tez, shoshilinch, shiddat bilan bajarilmoqda. Yemakxonaga kirgan xo'randa ham tez pishadigan taomga buyurtma beryapti, kun talabi shu – tezroq yeb, yana ishida davom etishi lozim. “Tez pishadigan” va “ko'p masalliq” talab qilmaydigan bu janrning talabgorlariga “oshpaz” shunday retsept tanlashi kerakki, unda hech nima ortiqcha ham, kam ham bo'lmasligi; osongina “hazm qilinish”i, ammo undan olinadigan “quvvat” uzoqqa yetishi darkor. Keyin bu iste'molchi qolganlarga ham “yemish”ining ta'rif-tavsifini keltirsin. Ba'zan shunday hikoyalarni ham ko'ramizki, hajmda ixchamlikka harakat qilinib mazmun to'mtoqligicha qolib ketadi yoki, aksincha, soxta detallar olib kirilishi natijasida ijod namunasi sun'iy ravishda uzaytiriladi. Bunday “go'shti chala pishgan”, “lag'monining xomiri yaxshi eshilmagan” “taomlar” esa “mijoz”ning ta'bini tirriq qilishi tabiiy.

Jonajon yurtimiz mustaqillikka erishar ekan, shu bilan bir qatorda o'z qarashlari, orzu-maqsadlari, niyat-o'ylari, uzoq tarix qatlamida qotib qolgan, yastanib yotgan urf-odatlarini, an'alariga ham ega bo'ldi. Ko'plab milliy qadriyatlarimiz, tarixiy inshootlarimiz qayta “tug'ildi”, qad rosladi. Mustabid tuzum davrida yerdan boshqa joyni ko'rmagan ko'zlar osmonga tikilishni, oy-u quyoshlarga, yulduzlarga qarab orzu qilishni o'rgandi; besuyaklikdan egilishdan boshqaga yaramay kelgan bo'yinlar rostlandi, g'ozdan andoza oldi; “xo'p”layverib, “bajaramiz”dan boshqa so'zni eslamay qo'ygan tillarga “ozodlik”, “muhabbat”, “ezgulik”, “insoniylik” degan lug'atlardagina uchratish mumkin bo'lgan so'zlar qaytdi.

Mustaqillikka erishilgach, bu, albatta, birinchi o'rinda adabiyotga yangi burilish olib kiradi. Asarlarda yangi ruh, yangi qarashlar paydo bo'ladi. Xuddi shunday asarlar yaratgan ijodkorlardan biri – Omon Muxtor.

To'g'ri, o'z o'rniga, e'tiborga ega bo'lgan ham shoir, ham yozuvchi Omon Muxtor avvalboshdan o'zining ajoyib ijod mahsullari bilan “yarq” etib bo'lgandi, ammo... Uning mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bosilib chiqarila boshlangan she'r va hikoyalarida erkin nafasning shukronasi, milliy o'ziga xoslikdan iftixor tuyg'ulari ufurib turadi. Aynan shular tufayli ko'plab ijod namunalari asosiy urg'uni mahalliychilikka qaratdi. Ko'tarib chiqqan mavzulari ham o'zbeklarga xos soddalikka, beg'uborlikka burkandi. Bu, ayniqsa, adibning bir qator hikoyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Quyida biz ayrim hikoyalarni ko'rib chiqamiz.

Omon Muxtor asarlari “pista chaqib o'tirib o'qiladigan” asarlar emasligi, uni o'qish uchun avvalo tayyorgarlik ko'rish lozimligi haqida o'zi ham ta'kidlab o'tganiday, ularni oddiy ko'z bilan o'qib bo'lmaydi. Buning uchun ham aqlan, ham ruhan tayyorgarlik ko'rish lozim. Masalan, yozuvchining qalamiga mansub bo'lgan “Moviy kitob” hikoyasini olsak, mana shu oddiy hikoya bag'riga insonlar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan qabih ishlar kiritilib, ulardan nafratlanish hissini muallif o'quvchi bilan baham ko'radi.

Abdurahimni “uyquning eng shirin payti” – soat tonggi uchda bezovta qilishadi, “kimlardir” qo'ng'iroq qiladi, asabbuzarlik keltirib chiqaradi. Natijada uyqusi allaqachon xarom bo'lgan qahramon kitobxonasiga kirib avvaldan o'qiyotgan kitobini varoqlaydi. Bu kitob “Moviy kitob” bo'lib, unda tarixda yuz bergan ko'p dahshatli va qabih voqealar tasvirlangan:

“Hajvchi-yozuvchi “bor haqiqatni ko'rsatish”ga chog'lanib, qadimgi pirsionlar (eroniyalar), yunonlar (greklar) davridan o'zi yashagan davrgacha inson hayotining dahshatli va qabohatga to'la manzarasini “tiklagan” edi. “Neron o'z onasini o'ldirtirmoqchi bo'lib, uzoq ta'qib qilgani va nihoyat, bir xilvatda qatl qildirgani... Yuliy Sezar qavmi tomonidan o'ldirilganidan keyin, Mark Antoniy uch yuz senator, ikki ming otliq askarni qilich domidan o'tkazgani. Bu yetmagandek, shubhali kishilarning boshini keltirgan qotilga yigirma besh ming

dinor mukofot va'da qilgani-yu, u shubhali edi, deb qirqta o'g'il o'z otasining boshini kesib kelgani... Eron shohi Kambiz (mashhur hukmdor Kirning o'g'li) misrliklar malika o'rnida oddiy kanizakni qo'yniga solib qo'yishganidan g'azablanib, sevgilisi-yu butun butun Misr ahlini qirib tashlagani... Ba'zi oilalarning katta-kichik a'zosini jamlab, sher va ayiq yotgan qafaslarga tiqishgani... Arzimagan gunohi bo'lganlarning terisi shilinib, qulog'i, burni, qo'li, oyog'i kesilgani, ularning qo'li, oyog'i, boshiga mix qoqilgani... Pulga (mol-mulkka) o'chlik, ochko'zlik har qadamda fitna, xiyonat. Inson zamonlar bo'yi nodonlik va yovuzlikda, naqadar johil yashagani..."²³

Shularning hammasi asarda tilga olinib, qilinishi mumkin bo'lgan barcha yovuzliklar tarixda qilib bo'lingani, endi odamlar bunday xatolarga yo'l qo'ymasliklari haqida bayon qilingan. Bundan tashqari qahramonning o'zi ham yoshligidan qiyinchiliklar bilan katta bo'lgan, keyinchalik ham uni ko'rguliklar tark etmagani ayni kunda bularni yozib olish uchun bir talaba yigit tinimsiz uni izlab yurgani ko'rsatib o'tilib, tarixchi-tadqiqotchining Abdurahim hayotida yuz bergan diltirliklar – bobosining to'ntarish yillarida osishgani, dadasining “xalq dushmani” sifatida qatag'on qilingani, keyin o'ziga navbat kelganida podval-yerto'lalarda jon saqlagani – qiziqishiga sababchi bo'lmasin, Abdurahim hech yon bermas, bugungi ozodlik hukmron kunlarda kechagi kun og'riqlarini unutish lozimligini, ta'kidlashdan to'xtamas edi.

“Bibi dambal” hikoyasi XX asrning 20-yillaridagi voqealarni esga olish asosida yozilgan ijod namunasi bo'lib, unda “kolxozlashtirish” kampaniyasining insonlar hayotiga, turmushiga, kelajagi-ruhiyasiga ta'siri ochib berilgan. Asar bosh qahramoni Fotima bonu ismli kampir bo'lib, uni odamlar “Bibi dambal – Semiz kampir” deb atashar, qishloqda hech kim u bilan muloqot qilishni istamas, o'zi ham birov bilan oldi-berdi qilmas edi. Bunga sabab...

20-30-yillarda avj olgan sho'ro siyosati odamlarni ikkiga bo'lib yuborgan: ko'pchilik eski turmush tarzini ma'qul ko'rsa, ayrimlar bosqinchilar va'dalariga ishonib, aksincha, sho'rolar siyosatining tarafdorlari bo'ladilar. Fatima bonuning

²³ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.282

eri Mahmudxon yer-suvli dehqon bo'lib, o'z tashabbusi bilan sho'rolar taklifiga labbay deb javob beradi va butun topganini ularga tutadi, ammo buni hamma ham to'g'ri qabul qilmaydi, unga xiyonatchi sifatida qarovchilar ham topiladi. Aynan shunday tomonidan kechasi o'z uyida olib chiqib ketilgan Mahmudxon uyiga qaytib kelmaydi. Buni esa Fotima Bonu shundaylugicha qabul qilib ketavermaydi, keta olmaydi ham. Oqibatda, o'zi bilib-bilmay mudhish xatoga yo'l qo'yadi. Qishloq ahli ichidan “dushmanlar”ni axtarib yurgan “qizil” askarlarga erining izsiz g'oyib bo'lishida aybdor deb bilgani – qo'shnisi Ko'saqul va uning ikki o'g'lini ko'rsatadi. Ular esa ikki o'g'il va otani Turariq jarligi bo'yida otib tashlaydilar. Natijada... Butun qishloq ayoldan nafratlanadi.

Asar o'sha davrdagi o'zbeklarning holatlarini shunday ochib berganki, ularning o'ylarida ikkilanishlar, ruhiyatidagi bo'shliqlar, soddalik bilan, ishonuvchanlik oqibatida yo'l qo'yilgan xatolar chizib berilgan. Fotima ayaning boshidan o'tganlari nabirasi Zulayhoning xayoli orqali bizga yetkazib beriladi. Hikoya oxirida esa uning tasavvur olamida ayrim savollar beriladi va bu savollarga na qahramonlar, na adib, na o'quvchi aniq javob berishi mumkin:

“U tushunmasdi, Mahmudxon bilan Fotima bonu sotqinmi, qahramonmi?! Sho'ro davri qaror topib, bu oila haqida gazetalarda yozilgan, ular ulug'langan, qolaversa, qishloq ahli yuz foiz “sho'ro libosini” kiyib olganidan keyin, nega odamlar qishloqda buning bariga zid holda, Fotima bonudan “uzoqlashib” ketdilar?! Unga katta bir hurmat, mehr bilan qaramadilar?!”²⁴

Asarda o'sha davr – “kechagi kun” siyosati va uning oqibatlari ko'rsatib, ochib berilgani bilan, eng asosiy “ko'rsatkich” sifatida undan qolgan asoratlar mustaqillikdan keyin ham yo'qolmagani, bod kasali singgari har “sovuq tushgani”da qo'zg'ashini olingan.

“Turkariq jarligida ko'p yillar muqaddam qolib ketgan uch jasad kampirning bag'riga ko'milgan, u bundan umr bo'yi iztirob chekkan edi...”

“Taroqchi chol” hikoyasi mo'jazgina asar sanalib, unda yillar davomida muallifning nigohida bir xilda – “taroq yo'nib o'tirgan” gavdalanaveradi. Chindan

²⁴ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.287

ham qachon qaramasin – Buxoroda o'tgan bolalik yillaridan to Toshkentda o'z o'rnini topgan shaxs sifatida o'sguniga qadar qachonki yo'li tushmasin, bir xil manzara ko'z oldida turaverdi – “taroq yo'nib o'tirgan chol”. Muallif bu bilan nima demoqchi bo'ldi, nega ayna o'sha taroqchi cholga ahamiyat qaratdi, nega endi yangi yilni kutib olish uchun to'planganlarida do'stlaridan biri qadah ko'targancha tabrik so'zi aytayotib, shu qadahni ko'ngilda bir odamni eslab, u uchun ko'tarishni taklif qilganida uni esladi – bularning barchasining sababi bitta: dunyoda har kim turli vazifalarni bajaradi, turli kasblari orqali o'zgalar va o'zlarining manfaatlarini qoniqtirishadi. Ammo cholning yo'li boshqa. U shuncha yillar davomida go'zallik uchun xizmat qildi. Odamlarga go'zallik hadya qiluvchi vozita orqali ham tashqi, ham ichki olamiga husn bera oldi, ko'rk bag'ishlay oldi. Hamma inson ham shundaymi?! Hamma ham, hatto, yo'nilgan taroqqa ehtiyoj qolmaganda ham o'z ta'limotidan kechmay, insonlarga oz bo'lsa-da naf keltirish yo'lida “taroq yo'nib o'tirga chol”day yashay oladimi?! Aynan shu savollarni o'ziga va o'quvchiga berish, ichki olamida javobini tasdiqlatib olish uchun ham adib bu “kichkina polvon” hikoyasini yozgan.

Omon Muxtor ijodi ko'pincha tahlil qilinganda ularda insonni tarbiyalashdan ko'ra, ichki olamining aksini ko'rsatib berishga intilish kuchli ekanini anglash mumkin. Mana shunday hikoyalaridan biri “Mansur va Mastur” hikoyasi bo'lib, u orqali adib, insonlar hayotida yuz beradigan birinchisidan keyingi farzand ko'rish vaziyatidagi ayrim kishilar e'tibor qaratmaydigan vaziyatni ko'rsatib berishga intiladi. Mansur to'rt yoshga to'lganida uylarida “yangi mehmon” kutishayotgan edi. O'sha kuni ertalab, uni boshqa xonaga dadasi olib chiqib qo'yganida uyqusi ochilgan bolaning keyin tasavvurida jonlangan o'ylar, u ko'zi bilan ko'rganlari – asarning tuzilishini tashkil qilgan.

Odamlar birinchi farzandlarini kutishar ekan, albatta, hayajon va sevinchga to'la yuraklari boshqacha orziqadi. Har nima bo'lmasin, birinchi farzand tug'ilganida butun e'tibor unga berilib, bola hammaning erkatoyi, ovunchog'i bo'ladi, bu o'z-o'zidan tushunarli. Unda muammo kamroq, ammo ikkinchi farzandni ko'rishayotganda ota-onalarda alohida mas'uliyat ham bo'ladi, ya'ni

farzandlar o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash. Lekin hamma ota-onalar ham buni o'ylaydimi, ikkinchi farzandlariga sevinish bilan birga birinchisining ko'ngliga ozor bermaydimi – ko'pchilik uchun bu oddiy tabiat qonuni, bunda o'ylab o'tiradigan narsaning o'zi yo'qday. Biroq ayni shu lahzadan boshlab, farzand tarbiyasida keyinchalik o'nglab bo'lmaydigan qusurlar paydo bo'lishi mumkin. Hamisha e'tibor markazida turgan bolakay birdan chetga chiqib qolsa, uning yosh ruhida o'zi hali tushunmaydigan, ammo keyinchalik ko'p muammolar soladigan alamzadalik paydo bo'ladi. Mansurda ham shunday bo'lib qolmadimi, axir “o'zgacha kelgan bu kunda uning kuni otasiga qoldi. Otasi uni bu kun uyg'onmay turib, ona bag'ridan uzdi. Nima uchundir beshafqatlik bilan yolg'iz o'zini kimsasiz uyga kiritib qo'ydi, erkalamadi, e'tibor bilan qaramadi. U otasi doimo shunday ekanligini o'yladi va unga otasi bemehr ko'rinarkan, o'zi ham uni hech qachon yaxshi ko'rmaganday tuyuldi. Shu bilan birga, o'zgacha kelgan bu kunda, o'zini nimalardir onasidan ham yiroqlashtirayotganini his etdi va onasi ham ko'ziga beshafqat muomala qilayotgan bo'lib tuyuldi”.²⁵

O'zbek xalqida ajoyib naqlyuradi – Qush inida ko'rganini qiladi. Bu isbot talab qilmaydigan, tarixning har qadamida to'g'riligiga shohidlik beruvchi voqealar minglab uchrovchi naqlidir. “Qizgina” hikoyasi qahramoni Zebo yoshligidan oilada ko'rganini qiladigan, ishlarining oqibatini o'ylamaydigan qiz bo'lib ulg'ayadi. O'n yetti yoshida texnikumga o'qishga kiradi va o'sha yerdagi adabiyot muallimi uning ko'ngliga boshqacha “o'rnashadi”. Natijada uning yo'lini poylaydigan, kunda birga uyga qaytish payida bo'ladigan bo'ladi. Keyin esa muallimini uyiga taklif qiladi. O'shandagi qizning holatini yozuvchi shunday tasvirlaydi:

“Zebo hushqomat, ko'zlari katta, chaqnoq, ikki yuzi qip-qizil, lablari do'rdoq, butun qiyofasida soddalikmi, bir oz garanglikmi, shunga o'xshash ifoda bor edi. U o'zini chiroyli deb bilar, yanada chiroyli bo'lgisi kelardi. Shu kuni qosh-kipriklariga “jivopis” degan qora qalam bilan bo'yoq tortdi, lablarini ozgina bo'yadi, kalta sochlarini yuvib-tarab, yelkalari uzra yoyib tashladi”.

²⁵ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. B.298

Keyin kech kirib muallim Shukurov keldi. U xonaga kirar ekan, u yerdagi holatni, dasturxonga qo'yilgan noz-ne'matlar – “bir patnis uzum, bozor non, to'g'ralgan kolbasa, pishloq va... bir shisha “portveyn”ni ko'rib, qoshi chimirildi. Buning ustiga Zeboning uyda yolg'izligi, ota-onasining qayoqqadir ketganiga uchrashuv “to'g'rilan”gani Shukurovni battar asabini buzdi.

Uchrashuv Zebo kutganiday bo'lmadi: muallim ko'p o'tirmadi, dasturxonga deyarli qo'l ham tegizmadi. Nonning bir tishlamini og'zida aylantirgancha o'tirib, keyin turib chiqib ketdi. Chiqib ketayotganida esa qizga bir og'iz gap aytib o'tishni ham unutmadi:

“- Singlim, - dedi u. – Bugungi ishingiz menga boshdan-oyoq ma'qul bo'lmadi! Uyda meni yolg'iz kutishingiz, bu ichimlik, hammasi yaxshi gap emas! Siz hali yoshsiz, turmushga salgina o'ylabroq qaramasa, oxiri qattiq qoqilish mumkin! Mayli, bu to'g'rida keyin yana bemalol gaplashamiz...”²⁶

Muallif bu hikoyasi orqali nima demoqchi bo'lyapti? Nimani bosh muammo qilib, uni yechishning qanday yo'llarini ko'ryapti? Yuqorida aytib o'tgan maqolimizga ko'ra Zebo ham otasining doimiy ichishlari, uyda janjal ko'tarishidan butun erkaklarga shunday baho berdi. Onasining esa o'sha erining yo'qligida boshqa birovni yetalab kelib qilganlarini ham aynan takrorladi, dasturxonga nimalar qo'yishdan tortib, soch turmagigacha. Ha, chindan ham, oilada ota-onaning bola tarbiyasida o'rni katta, bular faqat pand-nasixat bilan emas, amaldagi qilingan ishlar bilan ham ko'rsatiladi. Yaqinda bir lavhaga ko'zim tushdi: ota o'g'ilning qo'lidan tutib ketyapti. Va o'g'lining yo'lda ehtiyot bo'lib yurishini so'radi. Shundagi o'g'ilning javobi har qanday kimsani o'yga toldiradigan bo'ldi: “Ota, o'zingiz ehtiyot bo'ling! Chunki men siz yurgan yo'ldan yuraman!”

Omon Muxtorning “Bir lahza” deb nomlangan hikoyasida insonlar orasida tobora kamyob bo'lib borayotgan mehr, oqibat haqida to'xtalangan bo'lib, unda bir ishxonada, nainki ishxona, bir xonada ishlaydigan to'rt hodimning uzog'i bilan besh daqiqalik lavhasini ko'rsatib bergan. Unga ko'ra uzoq vaqt kasallikdan davolanib kelgan ayol hamkasblari, hamxonalari o'tirgan xona eshigini o'zgacha

²⁶ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // О'zbekiston. Т. 2011. Б.310

sevinch bilan ochadi. U kutgan voqea hozir eshik ortida o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lib o'tirgan uch yigit – kasbdoshlari Mehri opalarini ko'rib birdan o'rinlaridan turadilar-da, bir oy kasallanib kelgan ayolni sog'inch nigohlari va sevinch bilan kutib olishadi. Ammo... Voqe' bunday tus olmadi. Aksincha, butunlay teskari tus oldi:

“Keng va bahavo xonaning uch burchini egallab o'tirgan uch yigitdan har biri o'zi bilan o'zi band. Deraza oldidagi yumshoq kursida yoyilib o'tirgan ozg'in, jingalak soch Samad gazetani katta ochgancha, faromush ko'z yugurtirardi. To'rdagi stol orqasida cho'chib o'tirgan, sochi taqir qirilgan, ikki beti qip-qizil Usmon bir dasta idora qog'ozlarini ko'zdan kechirardi. Etak tomondagi stol yonida, qorachadan kelgan Asqar ham yelkalarini bukib o'tirardi. Bu yigit ham o'zi bilan o'zi ovora – qo'lidagi qora qalamni o'ychanlik bilan shu qadar berilib o'ynar ediki, bundan muhimroq ishi yo'qdek”.²⁷

Muallif juvonning holatiga 4 marta murojaat qiladi. To'rttalasida to'rt xil ruhiy holatni shunday ochib beradiki, o'quvchi o'z-o'zidan uning ruhiga kirib qoladi. Natijada insonlarning oqibatsiz, mehrsiz bo'lib qolganidan, ishni bir og'iz hol so'rashdan ham ustun qo'yilishidan nafratlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Omon Muxtorning yuqorida keltirib o'tgan hikoyalarida eng birinchi e'tibor voqeaga emas, qahramonlarning ruhiyatiga, voqelikdan keyingi o'zgarishiga qaratiladi. Har bir hikoyaga prototiv qilib olingan obrazlar faqatgina ayrim shu xildagi insonlarninggina emas, har bir kishining ichki olamlari umumlashmasiga qaratilgan.

²⁷ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.313

II Bob. Yozuvchi nasrida yashiringan po'rtana.

2.1. Omon Muxtor asarlarida xronotop.

Omon Muxtor asarlarini ko'zdan kechirar ekan o'quvchida bir lahzaning o'zida ikki xil tushuncha paydo bo'ladi, ko'z bilan ko'rib turgani voqelikka ikki xil nazar tashlaydi: real hayotda bo'lishi mumkin; bo'lishi mumkin emas! Misol tariqasida adibning "Maydon" roman-hangoma(o'zi shunday atagan)si haqida gaplashsak. Asarda hammasi oddiy, jo'n boshlanadi: o'z xonasida oynadan tashqariga boqib hayollar surib turgan qahramon kimningdir – balki yuragiga yaqin eng qadrdonining – qo'ng'rig'inimi, bir belgisini kutadi. Sog'inadi. U bilan yuz bergan ayrim suhbatlarni eslaydi. Ayni shu lahzada adib qahramoni tilidan ayollarga – zamon ayollariga nisbatan qarashlarini ham singdirib ketadi: "Bular bir paytlari to'rt devor ichida qolgan, chimmatga o'ranib chiqqan Ayollarimizga o'xshamaydi. O'zini erkaklarga teng tutgan, majlis to'rida o'tirib, aka, turing o'ringizdan, deydigan ayollarga ham o'xshamaydi. Hatto ot o'ynatib, qilich chopgan eng qadim Ajdodlarga ham o'xshamaydi...

Bular – istalgan yigitni bir cho'qishda qochiradigan Chars, Yangi Ayollar! Dunyoning allanbalo puchmog'ida nega tentiraydi, mashg'uloti, maqsadi nima?! – tushunish ham, boshqalarga buni tushuntirish ham qiyin".²⁸

Ushbu fikrlardan yozuvchini ayollarga nisbatan noxolis bo'layotgan, adolatsizlik qilayotganlikda ham aybsitish mumkindir, ehtimol. Lekin shu yerda uni oqlash uchun ham sabablar yetarli. Adib ayollarni avvalgiday xujralarga qamash, lata-putaga o'rab-chirmash fikridan yiroq, aksincha, zamonga mos, davr bilan qadam-baqadam odimlashini istaydi, faqat me'yorda bo'lsin, mezonni bilsin, sharqona urf-odatlarga ko'ra erkakdan birozgina pastgi o'rinda turishlari his qilishsin uchun ham ayni so'zlarni kiritib o'tgan.

Keyin... Biroz chalg'ish maqsadida "shaharning yarmi kaftdek ko'rinib" turgan oynadan aniq ko'zga tashlanib yotgan maydon(negadir bayramlardagina to'lib toshadigan, boshqa payt huvillab turadigan, bugun bunga zid holda odam

²⁸ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.27

ko'p bolgan – o'zgachalik, burilish shu yerdan boshlanmayaptimi?!))ga yo'l oladi. Bir qaraganda hammasi shunchaki odatdagiday, oddiy bir turmushiy holat. Ammo! Ammo hammasi, asarning butun mazmuni shu qarorga asoslangan. Qahramon shu hayol bilan “yigirma yetti qavatli binoning yigirmanchi qavati” yo'lagiga chiqadi-da, osma-qutidan joy oladi. U yerda doimiy ko'zi-ko'ziga tushadigan, tanish-bilishlar bo'lib, ularning aksari shu binoda umr o'tkazar edi. Shu joyda yozuvchining tanlab olgan obrazlari ham insonni o'ylashga, mushohada yuritishga majbur qiladi: Adib, Hakim, Mulla, Artist, Bemor, Baxshi, Osiy, Ayol, Savdogar, Qizcha, Arbob, Darvesh-masxaraboz. Bular bilan, o'y-fikrlari bilan tanishar ekansiz ijodkorning tanloviga qoyil qolmaslikdan boshqa imkon topa olmaysiz.

Roman haqida o'z fikrlarimizni tugal mazmunga keltirib olishdan avval munaqqid Ahmad Otaboyning ashbu asar to'g'risidagi “Roman haqida so'z” maqolasidan keltirib o'tganimiz maqsadga muvofiq bizningcha:

“Kutilmagan asarni Omon Muxtordan kutish mumkin.

Kutilmagan, deganda “tomdan tushgan tarasha”ni nazarda tutmayapman. Tasodif boshqa hodisa, adabiyotda tasodifan bir narsa yaralib qolmaydi.

Omon Muxtor o'zini takrorlamaydi. Atay shunday qildimi yoki ushbu hol yozuvchining ijod tabiati bilan bog'liqmi, bilmadim, biroq bir narsani payqash qiyinmaski, Omon Muxtor o'tgan, o'tayotgan va kelayotgan zamonlar bilan hamqadam. Bunga u qanday erishdi? Menimcha, oddiy – bizga sodda (ayrimlarga balki jo'nroq) tuyulgan, goh rivoyatni, goh afsona-yu ertaklarni eslatadigan romanlarida makon va zamon chegaralaridan chiqib yohud makonlar va zamonlarni uyg'unlashtirib tasvirlash orqali! Masalan, eramizdan oldin o'tgan yunon faylasufi, inqilobgacha bo'lgan o'zbek ziyolisi, zamondoshimiz ongi – Insoniyat Tafakkuri silsilalaridagi merosiy bardavomlik va biz kecha yo'qotganimiz, bugun bag'rimizga mahkam bosib turganimiz – Milliy Qadriyatni yozuvchi badiiy mushohada qiladi (“Aflotun”)

Yangi “Maydon” romani ham o'zgacha: falsafiy mushohadalar oddiy odamlarning oddiy, yo'l-yo'lakay qilgan hangomalariga singdirib yuborilgan.

Hangomani esa ular tushgan vaziyat taqazo etadi. Kutilmagan vaziyat, hayolga kelmagan fikrlar... Kishi beixtiyor o'zini – ust-boshi, sa'y-harakati, muomalamunosabatidan tortib, boshidan kechgan o'y-hayollarigacha tergaydi: oshirib yubormadimmi, odamlar nima deyishyapti, to'g'ri gapirib, to'g'ri yashayapmanmi?.. Bunday savqitabiiy istihola “Maydon” romanini tushunib o'qish jarayonida muttasil ko'ngilda kechadi. Roman bizning o'zimizga bir necha qirralardan turib tashlangan nazar. Shu ma'noda u dolzarb.

“Maydon”ni – o'ziga xos roman-paradoks, deyish mumkin. Yunoncha bu so'z – zid keluvchi, kutilmagan, degan ma'noni bildiradi. Ayni shunday ma'noda paradoks falsafada, mantiq ilmida keng qo'llaniladi. Badiiy adabiyotdagi paradoksning farqi bor. Hikmatli gaplar, so'z o'yinlari, tagdor qilib hazil ohangida aytilib, kulgu qo'zg'ashga qaratilgan qochiriqlar odatlanilmagan, kutilmagan tushunchalarni ifodalaydiki, bu paradoksning badiiy adabiyotdagi xizmatini belgilaydi. Jahon adabiyotida Bernard Shou, Anatol Frans, Oskar Uayld, o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor ijodlarida paradoksning ajoyib namunalarini kuzatishimiz mumkin.

Omon Muxtor kimnidir hajv qilmaydi, nimanidir inkor etmaydi. “Maydon”ning tili zaharxanda, kinoyadan holi. Shu ma'noda roman satiric yoki yumoristik asarlar sirasiga kirmaydi. Biroq u realizim andozalariga ham tushmaydi. Bu oddiy-hayoliy voqeaga qurilgan, teran mulohazaga da'vat etadigan, muallif topib nomlagan “roman-hangoma”. Darvoqe, “maydon” haqida. Asar nomi ramziy, eng avval, bu – siz va bizning fikr doiramiz maydoni, har kimning qarichiga mos maydon. Va bu maydonlarimiz barlashib, katta maydonni – tafakkurimiz, mayl-odatlarimiz, sa'y-harakatimiz maydonini tashkil etadi. Unda biz nechog'limiz, atrofimizdagi odamlar ruhiyati, kayfiyati, tashvish va sururi nechog'li? “Maydon” romanida shu haqida so'z yuritiladi!.. Asar mohiyatan kitobxonni odamiylik, ezgulik maydoni sari yetaklaydi”.²⁹

Yuqorida keltirilgan mo'jaz voqelik shunday bo'lib o'tadi: asar bosh qahramoni osma-qutiga kirib tugmachani bosadi, quti sekin-asta pastlay boshlaydi.

²⁹ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.28

Avval 19-qavat, keyin navbati bilan 18, 17, 16, 15-qavatlarni “zabt” etishadi. So’ngra esa 14-qavatdan 13-ga tushayotganlarida birdan... quti taqa-taq to’xtaydi, hamma hangoma mana shundan keyin boshlanadi. Ichkarida hozir bo’lganlar borasida o’quvchi dastlabki xulosaga ularning og’izlaridan chiqqan ilk so’zlardan keyingina keladi. Adib bu borada shunday mukammal ishlaganki, bir og’iz so’z bilan qahramonlari xarakterini o’quvchi ongiga chizib qo’ya olgan:

“Odamlar osma-qutida “qamalib” qolishi eskidan uchrab turadigan voqea.

Buning ustiga, hozir mening maydonni shunchaki aylanishdan bo’lak dardim yo’q; ko’chada biron ishim, aniq bir niyatim yo’q.

Shunga qaramasdan, kayfiyatim buzilib, qisina boshladim.

Boshqalar ham aftidan, shunday holatda edi.

- Astag’furullo! – dedi Mulla.
- Qurib ketkur! – dedi ayol.
- E-he-hey! – deb hayqirdi do’mbirasini quchib turgan Baxshi.
- Ana xolos! – dedi Hakim.
- Priam qo’lidan tushdi qilich,

U notob! – deb, o’zining yod olganini o’qib yubordi Artist.

- Men qo’rqapman. Yuragim chatoq. Yoningizda dori yo’qmi?! – Hakimga murojaat qildi Bemor.

Men Bemorga cho’ntagimda hap olib berdim.

- Xudoyim! O’zing kechir! – g’udrandi Osiy, shu soniyada yuzini reza-reza ter bosib.
- Qo’ng’iroq qilish kerak! – maslaxat berdi Qizcha.
- Enangni emgur! – deb qo’ydi Savdogar. U quti burchagidagi telefon dastagini ko’tardi. Sim uzib tashlangan edi. – Enangni emgur! – dedi yana Savdogar. U o’zining kaftdek qo’yin-telefonini chiqardi. – Men sizlarni qutqaraman! – qayoqqadir qo’ng’iroq qildi, natija bo’lmadi. – Birontasi joyida o’tirmaydi. Enangni emgur!

To shu damgacha Darvesh-masxaraboz iljayib, ming’irladi:

- Qosh bilan qovoq orasi,

Osh bilan tovoq orasi...

- Bachkanalik qilmang, aka. Aka, iltimos! – to'ng'illadi Arbob.

Bular – tug'ishgan aka-uka edi.

- Taqillatish kerak! – yana maslahat berdi Qizcha.

Hakim, Bemor, Osiy, Savdogar – to'rt kishi dar-u devorni taraqlata boshlashdi. Biroq yigirma yeti qavatli binoning biron qavatidan “huv” degan ovoz eshitilmadi.

Chamasi, nazoratchilar o'zi osma-qutining to'xtab qolganini payqab, tuzatishmaguncha kutishdan bo'lak iloj yo'q edi...”³⁰

Asar XXI asr – tezlik asri, odamlar o'ylashga, qilgan ishlari, atrofdagilar haqida mushohada qilishga ham imkon topa olmay ishlash bilan band bo'ladigan davr arafasida yozilganini inobatga oladigan bo'lsak, adib bekordan-bekorga osma-qutini “to'tatib” qo'yib, odamlarga o'ylashlari uchun vaqt bermaganligiga amin bo'lamiz.

Yaqinda bir do'stim bir oylik Safarbarlik Chaqiruv Rezerviga xizmatga ketdi. Xafta o'tmay orqasidan yo'qlab bordim. Do'stim oilada kenja farzand bo'lganligi uchun ota-onasi, aka-opalarining alohida e'tiborida voyaga yetgan. O'zi yomon bola bo'lmasa ham oilaga, ro'zg'orga ko'p ham foydasi tegmaydigan, asosan vaqti ko'cha-ko'yda o'ziga o'xshagan bekorchixo'jalar bilan o'tadigan edi. Ko'rishdik. Bir haftadagi o'zgarishni qarang: do'stim shu bir hafta ichida butun umrini qayta yashagan. Qilgan xatolarini o'ylab vijdoni qiynalgan. Endi bu yerdan chiqqanidan keyin butunlay boshqa inson sifatida yashashligi, qilgan kamchiliklarini qaytarmasligi haqida takror va takror ta'kidladi.

Buni ilova qilishimning o'ziga yarasha bahona-sabablari bor. Hozirgi tezlik birlamchi bo'lib qolgan davrda odamlar ortga nazar tashlashga ham vaqt topa olmay qolishmoqda. Qat-qavat bo'lib yotgan ishlar, nurli kelajakni ko'zlayverib, kecha nima qilgani haqida boshqotirishni hayolining bir chetiga ham keltirishmayapti, aniqrog'i, bunga tirnoqcha vaqtlari yo'q. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, adib qahramonlariga o'zlari haqida, o'tmishlari haqida

³⁰ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.29

o'ylashga, eslashga fursat topib berdi, shuning uchun ham, ayni shu maqsadda osma-qutini "osiltirib" qo'ydi. Endi ular o'zlarini bemalol oynaga solishlari, ko'zlariga ko'ringan kamchiliklarini to'g'rilashlari mumkin.

Bundan tashqari asarda muallimlar, xususan, adabiyot muallimi haqida ham to'xtalinib o'tilgan bo'lib, odamlarning ularga nisbatan qarashlarini ochiq-oydin ko'rsatib beradi va bundan achchiqlanadi ham:

"O'shanda Adabiyot Muallimi edim. Hali yigirma yetti qavatli "karvonsaroy"da ishlamasdim. Meni ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qiziqtirmasdi. Domla bilganini o'qiydi, bo'zchi bilganini to'qiydi! O'zimga munosib, ahvoli-ruhiyamga mos nimalarnidir yangi tanishimga gapirib, dardimni yorgan bo'ldim. Taxminan... maktabda aniq fanlar bo'yicha o'qituvchilar Adabiyot Muallimini hayolparastligi, soddaligi, ko'pincha uquvsizligi uchun kamsitib, turtib yurishadi, dedim. Bu – madaniyat darajasi pastligidan, dedim. Adabiyot Muallimi to'g'risida yaxshiroq bir kitob o'qimadim! Kitoblarda yozishgan, albatta. Lekin ular ham ... Ana, bir hikoya. Boqijon degan Adabiyot Muallimi og'ilxonaga kiradi. "Hayvon! Sigir emas, hayvon!" deydi. "Bu sigirni sotib, puliga cho'chqa olish kerak!" deydi. Sal turib: "Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da!" – deb emalanadi. O'zi shunday ahmoq ekanligi yetmagandek, boshqa bir Adabiyot Muallimini "ahmoq odam" deydi..."³¹

Asar bosh qahramoni Panoh(o'zining aytishi bo'yicha Olloh Panohida asrasin maqsadida qo'yilgan)ning adib haqidagi fikrlar yozuvchining o'zi va o'zi qatori ijod bilan mashg'ul bo'lgan kishilar haqidagi umumiy xulosalarga yaqin ekani bilan diqqatga sazovordir:

"U, mening yozganim – Adabiyot –

Dunyo, odamlar hayotiga ta'sir qiladi!

Eski shu do'konni tuzataman, odamlarni tarbiyalayman! –

Deb o'ylaydimi? Ishonadimi?!

Yo'q..

U – o't oldida turgan temirchi;

³¹ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.31

Ko'za yasayotgan kulol.
O'z ishini bajaradi, xolos.
“Adabiyot – kasb emas, hunar! – deyishadi.
Aslida, kasb ham!
Xo'p, u odamni og'ziga qaratib, keyin
Dunyoda abadiy qolmoqchimi?!
Yo'q...
Bunday da'voga bormaydi!
To'xta! U ta'magir bo'lsa-chi?! Ehtirom,
E'tibor kutayotgandir?!
Yo'q...
Bu narsalar o'tkinchi; -
Uning aqli yetadi.
Marhamat kutmaydi!
Balki, u o'z hayotini nihoyat, yaxshilamoqchidir?!
Uch-to'rt kun yayrab yurmoqchidir?!
Yo'q...
U kambag'al oilada tug'ilib o'sgan.
Hamon qiynalib hayot kechiradi!
Tushunmayman...”³²

Asarda inson o'z qismatidan qochib qutula olmasligi haqida ham to'xtalib o'tiladi. Panohning bir tanishi taqdirida buni ko'rsatib beradi. U osma-qutiga tushmaydigan, yer ostida yurmaydigan, tayyorami, parrakda uchmaydigan, umuman, taraqqiyotni hushlamaydigan, go'yoki ular bilan biror fojiaga yuz tutib halok bo'ladiganday o'ylaydigan kishi bo'lib, 53 yoshidayoq kasallikka chalinib joydan turib, tashqariga bir qadam ham bosishi mumkin bo'lmay qoladi. Ammo...

“Axiyri, chidayolmadi. To'shakdan ko'tarildi. Ikki tomondagi kichik derazalar oldiga birma-bir bordi; ikki yon ko'chani tomosha qildi. Nihoyat, shiddat bilan eshikka bosdi.

³² Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.33

Ostonadan kechdi, xolos.

Naryog'iga uning kuchi yetmadi..."³³

Asarning keyingi bosqichlarida osma-qutiga qamalgan har bir shaxsga aloqador ayrim voqelar eslanadi va shular orqali ular xarakteriga chizgilar chiziladi.

Bemor ham asil ismi Sharif bo'lgan bo'lib, u avval oshqozonidan shikoyat qilib tabibga uchragan, tuzalish uchun shifoxonaga yotganida esa o'z dardidan allaqachon qutilib, boshqa "dard" bilan "bemor"langan yigit bo'ladi. U kasalxonada ko'rikka o'tish uchun navbat kutib turganida bir juvonga to'qnashadi, keyin joylashish uchun bosh tabibga uchrashga navbat kutayotganlarida ham juvondan keyingi navbat tegadi, palataga joylashishganida esa qarama-qarshi turib qolishadi, nihoyat, kechki sayrga chiqishganlarida...

Xullas, taqdirning o'zi ularni yaqinlashtirish uchun neki lozim bo'lsa barchasini qiladi. Hatto ularning bir-birlariga muhabbat uyg'onishi uchun juvonning eri bilan munosabatini ham ko'rsatib o'tadi:

"Shifoxona mudiri qog'ozlarga qo'l qo'ygach, bemorlarni qabul qilish xonasiga keldi. Bu yerda ham besh-oltita odam navbatda turar edi. Bular shifoxona yo'lagidagi, avvalgi kishilar edi. U navbat so'radi. "Yana mendan keyinsiz!" – dedi boyagi juvon. Endi eri, ikkisi eshik yonidagi xarrakda o'tirishar edi. Sharif deraza ostidagi divan chetidan joy oldi. Er-xotinga shunchaki ko'z tashladi. Birovlarning munosabatini (jumladan, er-xotin ekanligini ham!) ilk qarashdayoq ko'ngilda sezasan. Sharif ham shunday his etgan edi! Biroq qiziq joyi, ularda dilrabolikmi, yaqinlikmi?! – yetishmaydi. Ana, biri-birining yonida o'zini begonadek tutmoqda. Har biri o'z tashvishi, o'z hayoli bilan band! Er juvonni kasalxonaga tinch, tezroq joylashtirib, bo'ynidagi o'z vazifasini, burchini ado etib, bu yerdan badar ketmoqchi. (Bo'ldi, sizga javob, desang, yugurib chiqib ketadiganday!) Juvon eshikka horg'in tikilgan. Ko'p o'tmay, ichkariga kirishi kerak! Bundan og'ringanmi, istamagan holatda. Iloji bo'lsa, bu tutqunlikni qabul qilmoqchi emas...

³³ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.34

Nihoyat, juvon ichkariga kirdi.

Sharifni ham izma-iz chaqirishdi”³⁴.

Ularning munosabatiga shu bahona ham sabab bo’lgan bo’lsa ne ajab. Sharif juvon bilan kechki sayrda yurganlarida tasodifan yelkalari to’qnashadi va bu keyingi vaziyatni o’z-o’zidan yuzaga keltiradi. Keyin juvonning arazlagan ko’yi chopib ketishi, ertasi kuni qilingan gina... Ammo Sharif ayolga yomon niyatda yaqinlashmaganini tushuntiradi. Juvon esa o’z navbatida imkonsiz edi...

“Sharif ko’p ayollar bilan tanishgan, ularni yoqtirgan, lekin:

Ishq boshqa, havas boshqa! –

U biron ayolni

Biron payt

Bunchalik yaxshi ko’rmagan edi.

Sharif boshqa ayollar bilan do’stlashganida, o’zining ular bilan munosabatida qandaydir bezbetlik, sharmandalik borligini o’ylamagan, bu ishning gunoh ekanligini ham xayoliga keltirmagan edi. Kingadir u va kimdir ham unga o’zini bag’ishlamagandek edi. Va Sharif buni dunyoning ravishi, deb qabul qilgan edi! Uning qoni-jonida endi azobli bir hissiyot uyg’ongan edi. U Viloyatdan uzoqlasholmas, oradagi yaqinlik uchun javobgar ekanligini ham bo’ynidan soqit qilolmas edi...

Har qanday muhabbat uzog’i bilan uch yilda tugaydi, deyishadi.

Bo’lmagan gap!

Ana, bu balo-qazodan qutulmoqni istab, necha yildirki, Sharif boshini devorlarga uradi. Biroq...

U kirgan ko’chaning

Oxiri yo’qdek edi!”³⁵

Keyingi qahramon Ayol bo’lib, uning asil ismi Iroda edi. Iroda birinchi turmushida ham, ikkinchisida ham bir xil aziyat chekkan: erini o’lim olib ketgan. Dastlabkisidan o’g’il, keyingisidan qiz farzand orttirgan edi. Kunlardan bir kuni

³⁴ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.36

³⁵ Ўша асар Б.37

uning nomida telegramma keladi. Birinchi eri Muhammadiyning 70 yillik tavalludi munosabati bilan (u mashhur bastakor bo'lib o'tgan edi) Buxoroda katta tadbir tashkillashtirilayotgan va ularni ham bu tadbirga taklif qilishgandi. Iroda qizi Dildora bilan yo'lga tushadi. U yerdagi b'lib o'tgan voqeliklarni tasvirlar ekan, yozuvchi ayol va qizining ko'ngil kechinmalarini o'quvchi tasavvuriga yarq ettirib qo'yadi:

“Hozir Dildora qiziq bir ahvolga tushgan edi! Nomaqbul ishni majburan bajarayotgandek holatda sezar, goh asabiylashib, goh ezilardi. Gap shundaki, Buxoroda mehmonlar katta-katta davralarga kirishgan edi! Bu davralarda Irodani “Muhammadiyning rafiqasi” deb tanishtirishar, Hamidni “Muhammadiyning o'g'li” deyishgach, Dildorani “Muhammadiyning qizi” deb qabul qilishar edi! Zig'ircha yolg'onga tobi yo'q, bolalikdan to'g'ri-yakkafe'l Dildoraga o'zi boshqalarga qo'shilib, o'yin ko'rsatayotgandek tuyular, bunday paytda o'zini qanday tutishini bilmay, sarosimalanib qolgan edi. Ayniqsa, onajoni (Iroda)ni u birinchi marta ko'rayotgandek edi... Boshqaga tegib, yana bola ko'rgan Iroda, keyingi yillarni o'z hayotidan o'chirib tashlagandek, Botirbekdan Muhammadiy “tomon”ga yuz foiz “o'tib ketgan” edi! Davralarda oldingi erini eslab, ko'zyosh to'kib, uzoq xotiralar so'zlamogda edi. Uning Muhammadiyni qaytib “tutib olgani” Dildoraning nazarida, erish, kulgili, ayanchli edi... Dildoraga buning bari shuhratparastlik bo'lib ko'rinmogda edi! Odamlar nega bunchalik shuhratga o'ch?! “Shuhrat tiriklarga emas, o'lganlarga kerak! – degan ekan bir donishmand. – Zeroki, shuhrat tiriklarni buzadi!” Tiriklarni buzishi bor gap! Lekin o'lganlarga kerakmi u?! Ularga bir gaz yer bilan ikki og'iz douyi-fotiha yetarli emasmi?! Biz o'tganlarning gunohlariga yangi gunohlar qo'shib, ularga sig'inishimiz joizmi?! Demak, shuhrat, umuman, keraksiz, da'vogami, chiranishgami o'xshagan...

Iroda qizining ahvolini his etar edi! Biroq u...

Muhammadiy bilan og'ir, mashaqqatli, baxtsiz hayot kechirgan edi. Odamdek yashash imkoni bo'lmaganidan, Muhammadiyga vaqtida ko'p ozor ham yetkazgan edi. Buning ustiga, bu odamning tuprog'i sovib-sovimay, boshqaga tekkan edi! Endi o'zini aybdor va harholda, qarzdordek sezar edi...

Hayot, yuzada ko'ringanidek, jo'n emas ekan-da! Sen nimani qilasan, qizim?!³⁶

Asardagi keyingi qahramon Osiy bo'lib, u yoshligidan sayr-u sayohatni orzu qiladigan, unga intiladigan bola bo'ladi. Ayniqsa, daryo uni o'ziga chorlab, doimiy uni o'zi tomon harakatlanishga undardi. Nihoyat, bir kuni ota-onasi uzoq qarindoshlarinikiga ketganlarida unga fursat topildi. Otasi u yoq, bu yoqqa borib keladigan qayiqni oldi-da daryo tomon oshiqdi. Keyin...

“Qayiqni bostirmadan qiynalib sudrab kelib, suvga tushirdi. Sakrab, o'tirib oldi. Oqim bo'ylab ketdi, ketaverdi. Qayergacha borishini o'zi ham bilmas edi.

Daryoning ikki tomoni daraxtzorlar, yalang maydonlar, baland-past qirlar, o'tloqlar edi.

Axiyri, olisda xonaqohmi, oftob nuridan yaraqlagan zangor bir gumbaz ko'rindi.

Daryo ancha kengaygan edi! Gumbaz angrayib qarab qolgan Yolg'iz(Osiyning asil ismi)ning nigohini pastga enib, kutilmaganda...

U qirg'oqda o'ynayotgan uch-to'rt yoshlardagi qora soch qizaloqni ko'rgandek bo'ldi va kutilmaganda...

Qizaloq suvga engashib, daryoda oqqandek bo'ldi!

Lahza ichida Yolg'iz, shunday bir holatni ilg'adi.

Lahza ichida uni dahshatmi, qo'rquv bosdi.

U qayiqni qirg'oq tomon surishi mumkin edi! U o'zini darhol suvga otishi ham mumkin edi. Buning hech xatarli joyi yo'q edi. Daryo teran ham, g'alayonli ham emasdi! Biroq o'sha dahshatmi, qo'rquv uni gangitgan edi.

U jon-jaxdi bilan qayiqni orqaga burdi va...

It quvlagan gado ahvolida uyga kirib keldi³⁷.

Inson hayoti davomida shunday bir holatga tushib qoladiki, arzimagan bir xatosi bilan katta fojia yuz berishi mumkin ekanligini his qilgani holda ham ushbu xatodan voz kecha olmaydi. Keyin nega bunday qilganini butun umr o'ziga-o'zi

³⁶ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.38

³⁷ Ўша асар Б.39

savol berib ham javobini topa olmaydi. Hayoti mana shu gunoh ustiga qurilib, undan qutilishning imkonini topa olmay hammadan qochib yashaydi, ammo shunda ham o'zidan qocha olmaydi. Yolg'izning – Osiyning – ham hayotida shunday hol yuz berdi. Oddiygina suvga tushib qizchani qutqarishi mumkin bo'lgan vaziyatda o'zida bunga jur'at topa olmadi. Va...

U keyinchalik ulg'ayganda ham, Bayramjonga uylanganda ham bu xatosining soyasidan qutula olmadi. Ayniqsa, xotini unga egizak qizlar tug'ib berganida, ularning qora sochlarini ko'rib, ko'zlariga qarashga botina olmay, unga bora-bora o'z kulbasi, xonadoni torlik qila boshladi! Oxiri bo'lmadi! Xotini bilan bolalarini ota-onasiga topshirdi-da, qishloqdan bosh olib chiqib ketdi. Ahyon-ahyonda, yilda bir yoki ikki uyga mehmondek kelar va tez orada yan qishloqdan ketar edi.

U o'z-o'zini aybsitishdan hech ham qolmaydi:

“Sen hayvonlik qilding! – deb o'yladi u. – Dunyoda shuncha kitoblar, shuncha ajoyib kuy-qo'shiqlar, hayratga soladigan tasvirlar yaratilganidan ma'no nima edi?! Sen ularni o'rganib, buyuk bir insonlarga ergashgning kelganidan ma'no nima edi?! Senga odamlar, xalqing tug'ilgan kuningdan boshlab bergan tarbiyadan ma'no nima edi?! Sen hayvonlik qilding...

U yana, hayvon ham bunday qilmaydi, deb o'yladi. Dengizda do'lfinglar g'arq bo'layotgan odamlarni ustlariga yuklab, qirg'oqqa tashib chiqarishi hayolidan kechdi. Nahotki, inson maxluqdan ham badtar bo'lsa?!³⁸

Asarda bundan tashqari shaharga borib boshliq bo'lgan Arbob – Obidxo'janing o'z qishlog'i, o'z qarindoshlaridan kechib yuborgani tog'risida; “Yasmin” degan kemandi suvga g'arq bo'lgani va hanuzgacha sababi topilmagani haqida; Hakimning Gippokrat qasamini ichgani-yu, ammo undan hanuzgacha hech kimga foyda tegmagani xususida – xullas, yana o'nlab voqealar kiritiladiki, ular har bir o'qiguvchini o'zi istamagan, bilmagan holatda “ko'zgu” qarshisiga kelishga majbur qiladi.

³⁸ Мухторов О. Майдон // Шарқ юлдузи. 1999. №1. – Б.40

Osma-qutiga qamalgan kimsalarning ahvoli, ruhiyasi juda noziklik bilan ochib berilganki, siz ham u yerda turganday, ularni taniydiganday, doim ko'rib yurganday xulosaga kelasiz. Bu, albatta, ijodkorning yutug'i. Axir, u sizni asarining bosh qahramoni sifatida talqin eta oldi-ku!

Romanning nomi – “Maydon”. Nega endi maydon? Maydonning nima aloqasi bor. Ma'lumki, har kimning o'z xayol maydoni bor. Bu asarni o'qish davomida inson o'z xayol maydonini qaytadan kashf etadi, yaratadi. Asar yakuni ham odatdagiday emas, hammasi Salima va Panohning birlashuvi bilan yakun topadigan bo'lib turgan lahzadan birdan portlash bo'ladi va bari ostin-ustun bo'lib ketadi.

Ro'parada
ajib bir oqlik!
Zarra g'ubor yo'qdek olamda.
Cheksizlik-ku! Dadil kirmoqlik
mumkin emas.
Odam – odam-da...

Dunyo yaralibdiki, unda hamisha ikki kuch – ezgulik va yovuzlik biri birisidan ustunlikka erishish yo'lida kurash olib boradi. Inson o'zi shakllangan muhit ta'sirida ikkisidan biriga ko'proq moyil bo'lishini alohida misollar bilan aytib o'tishning hojati yo'q. Bir oddiy vaziyatga, masalan, ko'chada yosh bolaning yig'lab turgan holatigashu yo'ldan o'tayotgan har kim turlicha ko'z bilan qaraydi – kimdir bolani qarovsiz qoldirgan ota-onani so'kadi, kimdir bolaning qo'lidan tutadi, yanakimdir esa bunga umuman ahamiyat ham bermaydi. Omon Muxtor hayotning barcha og'irliklari, past-balandi, o'ydim-chuqurlarini teran seza olgan zabardast inson. Uning “Muhabbat o'limdan kuchli” romanidagi ayrim qarashlari orqali naqadar insonparvar, bag'rikeng ekanini bilib olish qiyin emas.

Adibning dunyo, undagi odamlar bo'yicha qarashlari juda ham ajoyib. U bir insonni butunlay yomonga chiqarib qo'yishga qarshi. Har kimning ham ijobiy hamda salbiy tomonlari bor ekaniga, yonimizdagilarga faqat bir yoqlama qarashimiz noto'g'ri ekaniga o'quvchini ishontirishni xohlaydi: “Goho bunday

baxs chiqadi. Odamlarning necha foizi dono, ezgu, saxiy? Necha foizi aksincha, nodon, yovuz, manfaatparast? Albatta, buni hech kim hisoblab ko'rmagan. Hisoblab bo'lmaydi ham! Bir tomondan, biz ko'rkam deb bilgan kishida yetarlicha qusurlar bor. Xunuk atalgan kishida esa ulug'vorlik uchqunlari topiladi. Ikkinchi tomondan, bir yo'lda ketayotgan odamlarni qanday qilib "sarak-puchak"ka ajratasan? Biz kim bo'libmiz, buni dunyodagi ulug' hakamlar ham bajarolmagan... Ammo Yozuvchi doim bu jarayonga "sho'ng'ish"ga urinadi. Xudo kechirsin, U Zot yaratgan bandalarga "shakl-shamoyil"bergisi keladi. Bu balki, dunyoni anglashga urinish nishonasidir?!"³⁹ asar muqaddimasida muallif tomonidan bildirilgan bu fikrlar yuqoridagi adib haqidagi mulohazalarimizning ne chog'lik asosli ekanining ifodasidir.

Yozuvchi o'z asarida kattalarga bo'lgan hurmatga ham alohida to'xtalib o'tadi. U aynan pand-nasixat tarzida bunga sahifa ajratmaydi, balki roman qahramoni Ibrohim tilidan do'stlari tomon aytilgan so'zlar orqali ta'kidlaydi, e'tiborni tortishga urinadi: "- O'zingizdan yoshiham, ishi ham katta odamni hurmat qilish kerak! – dedi u. – Faqat yoshi katta yoki faqat ishi katta odamning ham so'ziga qarash kerak!hurmatini buzmaslik kerak! Aks holda, hayot izdan chiqadi. Barcha iplar uziladi. Boshboshdoqlik ro'y beradi. Itoatsiz mumkin emas..."⁴⁰

Romanning dastlabki bobida sho'ro davridagi ijtimoiy holat keng ochib berilgan. Rahbar G'ayrat Nusrat va oddiy xizmatchi Ibrohim o'rtasidagi konflikt asosida bu jarayon (shaxsga sig'inishlik)ni yoritib bergan. Ibrohimning tilidan aytilgan quyidagi so'zlar o'sha davr millatparvarlari dillarida qotib qolgani tabiiy: "... Tabiiylik qani? Xolislik qani? Biz katta xalqmiz. Ammo oramizda shunday odamlar borki, butun hayotni teatrqa yaqinlashtirib, o'zi o'ynab, butun xalqni o'yinga tortgisi keladi. Ana, siz sig'ingan G'ayrat Nusrat! Uning buyukligi yolg'on! O'zi biladi! Sizlar ham bilasizlar! U qo'lida qon tomgan qilichi bilan, o'zsha'ni, o'z obro'yini tutib turibdi. Imkon topib yashab qolishni istaydi, xolos! Sizlar unga oshiq-shaydo bo'lsanglar, marhamat! Ammo hammadan nega buni

³⁹ Мухторов О. Муҳаббат ўлимдан кучли // Шарқ юлдузи. 2000. №4-5. – Б.37

⁴⁰ Ўша асар Б.40

talab qilasizlar? Hamma uning aravasiga minib, ashulasini aytishi shartmi?”⁴¹ Omon Muxtor Ibrohimning “eski do’stlari” ga aytgan bu gapi orqali millat tanazzuliga sabab bo’lgan shaxsga sig’inish “kompaniya”sining naqadar soda o’zbek millati ichida avj olgani, ko’zlarni ko’rqilganiga yaqqol bir misol tariqasida hayajon bilan kiritdi.

Asarda yana bir epizod borki, u har bir yigitning boshiga tushishi mumkin bo’lgan tashvish – ota-ona istagi yohud o’z orzu-istaklari, suyganiga yetishish maqsadi – yoritilgan hamda unda o’zbeklargagina hos bo’lgan andisha, ota-onaga hurmat, sevgani oldida isteholali vaziyatga tushishdan qo’rqish ajib muloyimlik bilan yondashilgan: “Ibrohim ota-ona ra’yiga qarashi, ular bilan hisoblashishi kerak. Bokirabilan ham hisoblashishi kerak – “uydagi gap”dan u xabardor, qiz bola, bildirmasa hamki, Ibrohimga ko’ngli moyil, lo’nglida shu xonadonni “tanlab” yuribdi. Ibrohimning yoshi o’ttizga borib qolgan, masalani uzil-kesil hal etish payti allaqachon yetgan. Ammo istehola uning yo’lini to’sayotgan edi. U Marvaridga “bog’lanib” qolganini ham ota-onasiga aytolmayotgan edi. “Ostonasi tillodan uy”ga kelin bo’lib tushayotgan qizning nasl-nasabi, qaysi daraxt mavasi ekanligini so’rab-bilish oata-onaning haqi-huquqi! Musulmonchilikda “ota-onasining tayini ham yo’q”, “haromi” yoki “valadi zino” degan gap keladi. Ota-onasi noma’lum bolaning (qizning) qayerdan, qanday bunyod bo’lganini bilmaysan. Shu bilan birga, uchragan yetimni tamg’a bosgandek ish tutib haqorat qilish insofga kirmaydi. “Yetim qo’zi asrasang...” qabilidagi aybnomalar-ku, aniq nomard kishilardan chiqqan. Musulmonchilikda yetim-yesirlarga shafqat, ular boshini silash – ilk qatorda turadi.”Yetimlar, miskinlar, musofirlar” – bu uch so’z oyati karimalarda alohida ta’kidlangan! Ibrohim Bokiraning soyasiga ko’rpa to’shayotgan ota-ona ikkiyo’ldan birini tanlab Marvaridga quchoq ochishlariga ko’zi yetmaydi. Ularning ming xil fatvo-dalil keltirib, isyon ko’tarishlarini his etadi. Shuning uchun u vaqtini cho’zib, ishni paysalga solmoqda edi”⁴². Ushbu ko’rinish, sevgan qizi bu yoqda qolib, o’zgani tanlashga undalanayotgan

⁴¹ Мухторов О. Муҳаббат ўлимдан кучли // Шарқ юлдузи. 2000. №4-5. – Б.48

⁴² Мухторов О. Муҳаббат ўлимдан кучли // Шарқ юлдузи. 2000. №4-5. – Б.53

Ibrohimning arosatda qolgandagi holati ko'plab yigitlarga, o'g'illarga chiroyli namuna bo'lgani tabiiy.

Adib asarning ko'p joylarida eng buyuk zot sanalmish Onaning nechog'lik ulug' ekaniga, uning mehri, muhabbati oldida o'zgalar e'tibori sariq chaqalik qadr topmasligiga bot-bot ishora qiladi. Biz hozir keltiradigan misol esa ularning ichida insonni "port"latib, to'lqinlantirib yuboradigan, asardagi bir qarashda e'tiborni tortmagan, ammo yana qayta o'qishga va yuragida allanechuk o'rtanishni his qilishga majbur qilgan lavha sanaladi. Ismoil Xo'ja va Bokiralar egizak farzand ko'radilar. Ularni xalq ichida odat bo'lib qolganday bir xilda kiyintirishadi, bir xilda mehr berib ulg'aytirishadi. Egizlar bir-biriga shu qadar o'xshar ediki, hamma – mahalladoshlar ham, ustozlar ham, o'rtoqlari ham, hatto otasi Ismoil Xo'ja ham Hasanni Husan, Husanni Hasan deb murojaat qilar edi. Ko'p kulgili holatlar ham shuning natijasida ro'y beradi. "... Faqat miskin ona Bokira bonu boshini ko'tarib tik qaramayularni farqlay olar ediki, qanday buni eplagani o'ziga va Yolg'iz Xudoga ayon!"⁴³

Faqat bizning millatimizdagi eng go'zal ko'rinishini uchratishimiz mumkin bo'lgan akaning ukalarga g'amxo'rlikiga ham romanda sha'maqilib o'tilgan: "Sut bilan chaygandek mashina daraxtlar ortida g'oyib bo'lgach, Husan qiziqsinib xaltani ochdi. Olma-anor, holva-novvot. Bir boglam pul ham... Hasan shunaqa, barcha jigarlariga mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatib yuradi"⁴⁴.

O'sha davr ruhiyatiga, qarashlariga singib ketgan boylarga faqat yomon ko'z bilan, xasadgo'ylikda e'tibor qaratishga bo'lgan o'z tamoyillarini bir paytlar talabasi bo'lgan O'monqulning ustozlari Husan (professor)ga aytganlari orqali bayon qilgan: "Siz mendan ilmdan kechibdo'konda o'tirganim uchun xafa bo'lmang. Tirikchilik! Oila boqish kerak. Umuman, odamga munosib yashash kerak! Bilaman, kechagi kun emas, eski zamonlardan olimlar, shoirlar o'zi shohmi, gadomi kambag'alni ulug'lab, boylarni turtishgan. "Boy boyga boqar...", "boyonlarga tuf", shunga o'xshagan! Noto'g'ri. Odamning yaxshi-yomonligi boy-

⁴³ Ўша асар Б.56

⁴⁴ Ўша асар Б.61

kambag'allikka qaramaydi. Yovuz boylar bo'lgan. Lekin kambag'allar ham shunday yovuzliklar, joxilliklar qilganki...⁴⁵ Darhaqiqat, insonning yaxshi yoki yomon ekani uning moddiy tomondan boy-kambag'alligiga qarab emas, balki ma'naviy tomondan qay darajaga ega ekanligiga qarab o'lchanadi. O'sha fikrning davomi sifatida esa davr yoshlarining intilishi, xohishi shirakayf O'monqul so'zlarida oshkor etilgan: "“Kambag'alning xirqasidan or qilmoq shunchalar”. Bunisi yaxshi aytilgan. Or qilish kerak ham! Yirtiq kiyganbiron kishi uchramasligi durust! Bizda odamlar qadimdan asosan, dehqonchilik, hunarmandchilik, yana ko'cha-bozor, savdoga o'rgangan. Savdogarlar himmatli, olijanob toifa... Mendan xafa bo'lmang, ustoz”⁴⁶.

Omon Muxtor asar qahramonlari tillaridan chiqqan so'zlar orqali o'zining chin insoniy qarashlari aks ettirgan. U insonlar orasida mehr, muhabbat, oqibat hech qachon yo'q bo'lmasligini chin dildan istagan. O'monqulning savdogarlik, tadbirkorlik bo'yicha fikrlari zamirida hozirgi kunda ochilgan keng yo'llar bashorat qilingan bo'lsa ne ajab.

Teatr sahnasida biror spektaklni tomosha qilar ekanmiz; ekran qarshisiga joylashib o'tirib yaxshi filmni kuzatarkanmiz undagi lavhalardan, syujetlardan o'zimizcha turli holatlarga tushamiz: ayrimlarida kulgudan o'zimizni tiya olmasak, ba'zilarida qahramon taqdiriga kuyunib, yig'lab-siqtab olishimiz ham bor gap. Lekin shu lahzada o'ylamaymizki, ayni shu onda dunyoda nafas olayotgan yetti milliard kimsaning hammasining ham hayotida ekrandagidan va yoki sahnadagidan ham kuchliroq komediya, tragediya, drama sodir bo'lyapti. Ha, chindan ham har kimning hayoti alohida roman, alohida kinoasar.

Omon Muxtor asarlarini yaratar ekan, undagi qahramonlarni insonlar orasidan qaysidir qobiliyati bilan ajralib turadigan, boshqalarga o'xshamaydiganlarini tanlab oladi. Aslida, har kimning ham boshqalardan ajralib turadigan jihati, o'zgacha alohidaligi, iqtidori bo'lib, uni faqatgina qarashlari teran ijodkorgina ko'ra oladi, xolos.

⁴⁵ Мухторов О. Муҳаббат ўлимдан кучли // Шарқ юлдузи. 2000. №4-5. – Б.64

⁴⁶ Ўша асар Б.66

Yozuvchi qalamiga mansub bo'lgan "Osmondan tushgan odam" qissasi haqida quyidagi fikrlarimiz so'zimizning isboti sifatida xizmat qilsa ne ajab.

Ayni qissa orqali muallif nima demoqchi, qanday g'oyani olg'a surgan, degan savollarga javob berishdan avval, uning shakliga, tuzilishiga ahamiyat bersak. Qissalar, odatda, 50-60 ba'zan esa undan ham ziyod sahifalardan tarkib topishi bizlarga ma'lum, ammo Omon Muxtorning "Osmondan tushgan qissa"si atigi, 16 sahifadagina iborat. U ham 10 qismga bo'lingan bo'lib, 1-5-qismlarida voqeliklar kengroq bayon qilingan, keyingi qismlar esa 2-3 gapdangina tashkil topgan. Lekin... Lekin mana shu qisqagina qissa orqali muallif o'z qarashlarini, fikrini o'quvchiga yetkaza olgan – nishonga bexato urgan.

Asar dastlab Mansurning kech kirganiga qaramay uydan hovliqib ishxonasiga chiqib ketishi lavhasidan boshlanadi. Tabiatan tartibli, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondoshadigan inson bo'lgan qahramon oxirgi chekkan sigaret qoldig'ini qayerga tashlaganini eslay olmay, biror xavf tug'ilmasin uchun ishxonaga qaytadi. Xonasida hammasi joyida ekanini ko'rgach, ortga qaytishga chog'lanadi va qaytishda rahbarning xonasi ochiq ekaniga ko'zi tushib qoladi. Kirib qarasa Qo'rg'onov maykachang ahvolda o'z stolida boshini yonboshlatib uxlab yotgan bo'ladi. Bundan hayrati oshdan Mansub tez idorani tark etadi. Hamma tomosha ertasidan boshlanadi.

O'sha kuni Qo'rg'onovning xotini idoraga kelib-ketgan bo'lib, Mansur va uning doimiy birga tushlik qiladigan do'stlari (Nabi, Ramazon, Otaxon) odatiy makonlari choyxonada o'tirib shu xususda gapirishadi. Keyinchalik o'zi alamzada bo'lib yurgan rahbarning (negaligi haqida keyinroq) qulog'iga bu hodisa ozmi-ko'pmi yetib boradi. Va har bir ulfatni birma-bir xonasiga chorlaydi. Shu yerda, kabinetda bo'lib o'tgan suhbat zahirida insonda nafrat hissini uyg'otadigan holat yuz beradi. O'zaro hol-ahvol so'ragan kishi bo'lib, avval ishlar qay darajada ketayotganini surishtirgan rahbar, keyin xodimiga yuzlanadi:

“ – Sizning ishlaringiz yaxshi ketyapti. Men xursandman! Yaqin orada, bir yil-yarim yil ichida, men bu yerdan boshqa yoqqa ishga o'taman... Ikkimizning o'rtamizda qolsin, bilasiz, har xil odam bor. Qisqasi... sizni o'z o'rnimga

mo'ljallayapman! Siz qobiliyatli, kamtar yigitsiz. O'sishingiz kerak!.. E'tiroz bildirmang. Gapni bo'lmang. Men shunday qarorga kelganman. Lekin... – sizdan faqat bir iltimos. Arzimagan, do'stona... Gapirishga ham noqulay, muhim bo'lganidan... Meni tushunarsiz, deb o'ylayman. Qisqasi... dushanba kuni, bundan roppa-rosa to'rt kun burun sizlar tush payti choyxonada o'tirgansizlar. Men kimlar bo'lganini bilaman. Nimalar deyilganidan ham xabarim bor. Faqat, rostdan shunday bo'lganini aytsangiz. Keyin, kim nima deganini so'zma-so'z, aniq! Menimcha, bu qiyin emas. Ayniqsa, men sizdan o'tinib so'rayapman...”

“Bu – juda eski, razil uslub. Qo'rg'onov uning terisi ostiga kirib olib, gap tashish, chaqimchilik qilishga undayapti. Bir paytlar xuddi shunday bo'lgan. Bizga yordam bersangiz, fikringizni bildirsangiz, deb odam orqasidan odam qo'yib, shubha tug'dirib, jirkanch uydirmalarga asoslanib ming-minglab kishilarning yostig'i qurigan. Xonumoni kuygan. Qanchadan-qancha kishilar kundalik muloqotlardan qochib, ko'nglidagi oddiy bir dardlarni ham aytishdan hayiqib, jur'atsiz to'nkaga aylangan. Ilonning jilpanglashiga o'xshagan muomala, yolg'on-yashiq va'dalarga aldanib, birovlarini qurbon, birovlarini mayib-majruh qilgan kishilarning o'zlari ham ularning izidan tubsiz jarlarga qulab ketishgan. Odamlar boshida qor-yomg'irli ayovsiz sovuq bir girdibod urgan! Butun hayot xiyonat va tuhmatdan iborat bo'lgan!.. Endi u malomatli, mash'um zamonlar orqada qolgandek. Biroq, qoni-jonida o'sha kunlarning asorati saqlangan xastalar, qullar bo'lganidek, u davrlarning hamonki o'rnida turgan posbonlari ham bor ekan-da! Barakalla, o'rtoq Qo'rg'onov!

Mansur birgina daqiqa ichida juda ko'plab narsalarni o'ylab, his etsa-da, endi sarosimalanib-hayajonlanmadi.

- Nimaiki iltimos bo'lsa bosh ustiga, Rustam Kamolovich, - dedi u bosiqlik bilan. – Aytganingizni bajarishdan qochmaymiz. Haligi gapga kelsak, biz har kuni choyxonada o'tiramiz. Suhbatlashamiz. Bundan jiddiylik qidirish, bilmadim. Mening gap terib, gapni ko'tarib yurish odatim ham yo'q...”⁴⁷

⁴⁷ Мухторов О. Осмондан тушган одам // Шарқ юлдузи. 1991. №7. – Б.60

Qani endi avval ham shunday javob bera olishganlarida, avval ham buni o'zlariga or sifatida qabul qilishganida. Ehtimol shunda iste'dodli, xalqparvar o'zbek o'g'lonlarining aksariyati erta bo'yinlaridan dorga osilmasmidi, o'rusning sovuq o'rmonlarida xorlikda qolishmasmidi? Ehtimol adabiyot ixlosmandlari Qodiriyning yana o'nlab "O'tkan kunlar"ini, Cho'lponning "Kecha va kunduz"larini, Usmon Nosirning yuzlab o'tli, haroratli she'rlarini o'z kutubxonalariga joylagan bo'larmidi. Afsuski, hamma ham Mansur bo'la olmadi, hamma ham Nabi bo'la olmadi. Darvoqe, Nabi –

“... Qo'rg'onov bo'limdagi boshqa yigitlarga qaraganda Nabi bilan juda qisqa gaplashgan edi. U so'z ochgani zahoti, Nabi chuvak yuzidagi o'tkir ko'zlari chaqchayib, nima, men sizga shpionmanmi, degan va Qo'rg'onov darhol, mayli, javob sizga, deyishga majbur bo'lgandi...”

Nabining xotini magazindan kitob javoni olib keldi, ular to'rtinchi qavatda turishgani uchun bu javonni olib chiqish muammo edi, shunda xotini do'stlarini yordamga chaqirishini maslaxat berdi. Ammo shunda hech kutilmaganda er tutaqib ketdi, xotin avval bunday kayfiyatda uni ko'rmagan edi. Ishxonada do'stlaridan birining xiyonatchi chiqqanidan bo'g'ilib yurgan Nabini u qayoqdan ham bilsin:

“Nihoyat, javonni uyga olib kirishgach, xotiniga yuzlanib:

- Nima, men Qo'rg'onovga shpionmanmi? – dedi hamon asabiylashib turgan Nabi. –Bunaqa ishda ishlagandan, o'lgan yaxshi. Ariza yozaman! Ketaman...”

Asarning yakuni yana ham ayanchli tus oladi:

“Nabi bilan ketma-ket Ramazon ham ariza yozib, ishdan bo'shadi.

Keyin oradan ko'p o'tmay, Otaxon ham ketdi.

Bu yigitlar o'rnida ishga yangi xizmatchilar kelishdi...”

“Mansur, kim xiyonat qilgani ma'lum emas, ammo ishdan ketmasa, butun gunoh o'z bo'yniga tushib qolishini kundan-kunga chuqurroq his eta boshladi.

Nihoyat, u ham ariza yozdi...”⁴⁸

⁴⁸ Мухторов О. Осмондан тушган одам // Шарқ юлдузи. 1991. №7. – Б.70

Bu asar mustaqillikning dastlabki yillaridan yozilganini inobatga oladigan bo'lsak, adib u orqali xalqqa murojaat qilgan holda ularga endi ortiq hadikda yashamaslikni, bir-birining payini qirqitishga, o'z-o'zini yakson qildirishga qaratilgan siyosat allaqachon batham topganini. Xalq orasidan hech nimaning evaziga bunday razillikka qo'l urmaydigan Mansurlar, nabilar yashayotganini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan.

Bugungi kunda o'zbek romanchiligida badiiy an'anaviy xronotop muhim o'rin egallamoqda. An'anaviy xronotopda syujet hududidagi barcha asosiy voqea-hodisalar vaqtning muayyan bir bo'lagida tasvir etiladi. Aniq izchillikka qat'iy rioya qilinadi. Bir voqea ortidan boshqasi sodir bo'ladi. Ular o'zaro yig'ilib ma'lum bir davrning yaxlit epik manzarasini yuzaga keltiradi. To'g'ri, bunda retrospektiv usul vositasida mana shu badiiy zamon va makondan "tashqari"ga chiqish ham mumkin. Eslash – xotira orqali o'tmishga qaytish ham mumkin. Aksariyat o'zbek romanlarida ushbu badiiy vositadan cheklangan holda foydalanilgan. Bunday usul, masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida istifoda etilgan. Birinchi o'zbek romanida Otabek va Kumushning ilk uchrashuvi, usta Olimning farahbaxsh va g'ussali sevgi hikoyasi fikrimizga dalil bo'la oladi.

O'tgan asrning yigirmanchi-etmishinchi yillarida yuzaga kelgan zamonaviy va tarixiy romanlar an'anaviy xronotop shaklida namoyon bo'ldi.

YO'zuvchi Omon Muxtorning dastlabki romanlari "Yillar shamoli", "Egilgan bosh" mavjud adabiy an'analar ta'sirida yuzaga kelganidan, ularda badiiy an'anaviy xronotop ustuvorlik qiladi. "Yillar shamoli" – iste'dodli adibning ilk romani. Undagi asosiy voqealar Buxoro viloyatining oddiy qishloqlaridan birida bo'lib o'tadi. Munaqqid Ahmad Otaboy bilan suhbatda Omon Muxtor bu asarini an'anaviy yo'sinda yozganligini o'zi e'tirof etgan. An'anaviylik boshqa jihatlar singari badiiy xronotopga ham tegishli: badiiy vaqt xronologik tarzda tasvir etilgan, makon aniq va an'anaviy roman talablariga ko'ra tasvir etilgan. Umuman olganda, o'tgan asrning etmishinchi yillariga kelib, milliy romanni shakliy-

mundarijaviy jihatdan isloh etish, uni zamonaviy jahon romani strukturasi darajasiga olib chiqish bo'yicha ba'zi bir urinish, harakatlar bo'la boshladi.

Bunday harakatni Pirimqul Qodirovning "Olmos kamar", Omon Muxtorning "Yillar shamoli" asarlarida ko'rish mumkin. Mazkur yangilanishga intilish, eng avvalo, nimalarda namoyon bo'lgan edi? Yetmishinchi yillargacha yuzaga kelgan aksariyat milliy romanlar "dinamik syujet" asosiga qurilgan. Voqealarning shiddat bilan davom etishi, bosh qahramonning, asosan, keskin kurash davomida qahramon(lar) ongi, dunyoqarashining o'zgarib yoki mukammalashib borishi "dinamik syujet"ga xos xususiyatlar sirasini tashkil etadi. Pirimqul Qodirovning "Olmos kamar", Omon Muxtorning "Yillar shamoli" romanlarida esa, boshqacharoq tasvir usuli bor. Ulardagi voqea tizimi shiddat – tezlik (dinamika) asosida harakat etmaydi. Bunda mualliflar kinematografiyaga xos "sekinlashtirilgan tasvir" usulidan foydalanadilar. Keskin harakatlar, suronli voqealar o'rnini oddiy hayot lavhalari, kundalik tashvishlar ifodasi egallaydi. Voqealar sokin, ba'zan juda sekin davom etadi. Qahramon(lar)ning o'y-fikrlari, ish, oila, hayot haqidagi muloqotlari asosiy o'rin egallaydi. Favqulodda, kitobxon qalbini larzaga soladigan qahramonona hodisa deyarli ro'y bermaydi, bo'lganda ham oddiy bir yo'sinda, beparvoz, ehtirolardan xoliroq tarzda bayon etiladi. Shunga qaramay, bunday asarlarni sinchiklab o'qish mobaynida, kundalik tashvishu harakatlar girdobida turib, o'z burchini ado etayotgan insonning buyuk qalbini asta-sekin o'rganib, kashf etib borish mumkin. Ulug' rus adibi CHexov o'zining askar hikoya, qissa, dramalarini ana shunday tarzda yozgan, oddiy odamlardagi qahramonona xarakterni realistik zayilda, yuksak badiiy mahorat bilan ko'rsata olgan. Omon Muxtorning "Egilgan bosh" deb nomlangan ikkinchi romanida ham syujet an'anaviy xronotop asosida qurilgan. Asarda sho'ro tuzumining turg'unlik davriga xos epik mazaralari o'z aksini topgan. Garchi, bu asarda eslash badiiy usuli yordamida uzoq va yaqin o'tmishga oid ba'zi voqealar tasvirlansa-da, asosiy voqea-hodisalar muayyan bir davrga taalluqlidir.

Roman to'rt "daftar" (bob ma'nosida)dan tashkil topgan. Asarda sho'ro tarixining "turg'unlik" deb nom olgan mash'um bir davri manzaralari chizilgan.

Badiiy matndagi vaqt tasviri ana shu davr mohiyati, fojialarini yoritish, ishiga xizmat etgan. Etakchi qahramonlar – Abror, G‘oziddin, Qodirjon muayyan zamon va makon doirasida harakat qilar ekanlar, o‘zlarining inson, shaxs sifatidagi ijobiy yoxud salbiy jihatlarini namoyon etib boradilar. Muallifning asosiy maqsadi davrning insonga, shuningdek, insonning davrga ta’sirini badiiy tadqiq etishdir. Odatda, ma’lum bir jamiyatda paydo bo‘lgan taraqqiyot, ezgulikka g‘ov bo‘gan illat, jinoyat, xatolar uchun davrni ayblaydilar. Aksincha, zamonning yomonlashuviga odam(lar)ni sababchi qilib ko‘rsatadilar. Bu fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri? “Egilgan bosh” asari muallifini asosan shu savolga javob topish qiynagan. Romanni mutolaa etish jarayonida mazkur savolga har bir qahramon yoki personaj hayoti, o‘y-mulohazalari tasviri, talqini orqali javob berishga urinish, intilishni ko‘rish mumkin. “Egilgan bosh”dagi G‘oziddin – ma’lum bir tarzda, dunyoqarash yuzaga keltirgan shaxs. U aslida olis bir viloyatdagi ovloq qishloqda tug‘ilgan. Ota-onasi oddiy, kamsuqum, mehnatkash, xokisor kishilar. G‘oziddin o‘qish niyatida ulkan shahar – poytaxtga keladi. U hamma qatori o‘qib, yana qishlog‘iga, ota-onasi bag‘riga qaytishi mumkin edi. Ammo, u boshqa – manfaat, amal-martaba, oson topiladigan boylik, aniqrog‘i, yovuzlik yo‘lini tanlaydi. Dastlab, uning bu yo‘ldan maqsadi xalqni aldab, jamiyatda alohida mavqe egallagan Haqnazarov (bo‘lg‘usi qaynotasi)lar guruhini intiqom olish, shu zayilda adolat, haqiqat uchun xizmat qilish edi. Shunday niyat bilan G‘oziddin Haqnazarovning to‘ng‘ich qizi – Noilani o‘ziga rom qiladi va Haqnazarovning noroziligiga qaramay, bu qizga uylanadi. Kuyov sifatida qaynotasi guruhiga kiradi va shu to‘daning ijrochisi, maslakdoshi bo‘ladi. Ezgu sifat, xislatlardan marhum bo‘lib, manfaatparast, muttaham, jinoyatchi bir kimsaga aylanib qoladi. Roman bosh qahramoni tabiati, dunyoqarashi, psixologiyasidagi bunday evrilish sababi, omili, asoslarini muayyan xronotop (zamon-makon)ga xos ijtimoiy tafakkur, hukmron ta’limot, mavjud dunyoqarash bilan aloqadorlikdan izlash to‘g‘ri bo‘ladi. Mustabid siyosat, nobop ma’muriy-idora tizimi, dahriylik dunyoqarashi boshqargan tarixiy shart-sharoit, vaziyatda azaliy qadriyatlar zaiflashib, zavol topib, xudbinlik, e’tiqodsizlik, manfaatparastlik ko‘payib, rivoj topadi. Insoniyat hayotining doimiy-

azaliy poydevori, zamini sirilib boradi. Gʻoziddin yovuzlik ustidan gʻolib boʻlib, uning vakillarini mahv etmoqchi edi. U oʻzining hamyurti Abrorga roman boshida shunday deydi: “Men... anavi Haqnazarovlardan intiqom olishni oʻylaganman. Qizini olib, mana, men bilan muomala qilmay, hisoblashmay koʻr-chi, deb Haqnazarovlarni yer bilan yakson qilmoqchiman. Bu kurash, isyon... koʻpdan beri bunga tayyorgarlik koʻrganman. Endi vaqti yetdi, yerga koʻmib qoʻygan bombaday portlayman”. Mavqeli kimsaning qiziga uylanib, uning koʻmagida katta bir idoraga rahbar boʻlib olgan bu “isyonkor” oʻzi boshchilik qilgan tashkilotdagi adolatsizliklarga qarshi chiqayotgan haqiqatparvar xodim Qodirjonga butunlay boshqa gaplarni aytdi: “Qanaqa haqiqat... Men dahriyman, zamon farzandi... Biz kuchlimiz! Juda kuchli! Bizning oldimizda boʻynini choʻzaverganning boʻyni sinadi. Senga oʻxshagan qahramonlardan ancha-munchasini yoʻq qilganmiz. Shamolimiz tegib, uchib ketgan. Bu quruq poʻpisa emas. Sen ham oʻzingni tushunib, egilib-bukilmasang egib-bukamiz. Yoʻlimizda yotib olaversang, surib tashlaymiz”. Gʻoziddinning ota-onasi – sodda, mehnatkash, samimiy odamlar. U bolaligidan mana shunday xonadonga mansubligidan or qilgan, boy-badavlat, mavqeli kishilarni koʻrib, ularning aksariyati nopok yoʻllar bilan davlat orttirganiga ishonch hosil qilib borgan. Intiqom olish uchun ularning davrasiga kirish va ichdan zarba berish rejasini tuzgan. Noilaga uylangach, aksincha, boʻlib chiqadi. Haqnazarovlar Gʻoziddin (bu nomda kinoya kodi yashiringan: Gʻoziy-gʻolib degani)ni oʻz ismiga boʻysuntiradilar, u endi jinoyatkor guruh manfaatlariga xizmat qila boshlaydi. Ezgulik va taraqqiyotning dushmaniga aylanadi. Gʻoziddinning koʻrsatmasi va harakati bilan haqiqat kurashchisi Qodirjonning eng sevgan kishisi – xotini halok etiladi. Razolat guruhi bu yoʻl bilan Qodirjonni bukib-egib tashlamoqchi edi. Ammo, fojia (Adolatning oʻlimi) haqgoʻy qahramonni kurash va toʻgʻrilik yoʻlidan ortga qaytara olmaydi. Qodirjon kurashda davom etadi. Gʻoziddin yigirmanchi asrda sobiq shoʻro mamlakatining mafkuraviy-siyosiy, psixologik muhitida yuzaga kelgan muhit va mafkuraning mahsuli. U oʻzini dahriy (ateist) deb biladi. Buyuk yaratuvchini inkor etish va tan olmaslik, aslida, u yaratgan insonni tan olmaslik demak. U jinoyat qilar ekan,

ilohiy (qiyomat) jazodan qo‘rqmaydi. Mamlakatda ko‘payib, urchib borayotgan haqnazarovchilik va g‘oziddinlarning shafqatsiz faoliyati e‘tiqodsizlik, nafsga berilish, insoniy-ruhiy qadriyatlarni poymol qilish va hokazolarga olib boradi. Bunday hayot tarzi, o‘z navbatida, davlat, qonun, axloq asoslarini emirish, odamlar orasida bir-biriga, kelajakka ishonchsizlik tuyg‘ularini shakllanishiga, mehnat qilmay, tekin daromad topish kayfiyatining kuchayishiga olib keladi. Bu esa, insoniyat va jamiyat halokati demakdir.

Tajribali va iste’dodli adib Omon Muxtorning badiiy xronotop shaklida yozgan “Egilgan bosh” romani tarix haqiqatini o‘ziga xos, dramatik tarzda gavdalantirganligi jihatdan badiiy ahamiyatga ega.

2.2. Navoiy timsoliga tavsif.

Barcha turkiy xalqlar adabiyotida alohida o'rin egallagan shoir – g'azal mulkining sultoni, xamsachilik an'anasining davomchisi Hazrat Alisher Navoiy ijodi bo'yicha qiziqmagan, izlanmagan o'zbek adabiyoti ixlosmandi, ijodkori bo'lmasa kerak. Xususan, Omon Muxtor ham bu yo'lda ko'plab izlanishlar olib bordi. Ammo u boshqalarday yo'l tutmadi: shoir ijodi, hayot yo'li haqida ma'lum bir syujetdan iborat, voqeliklar ketma-ketligidan tashkil topgan asar yaratmadi, aksincha, dahoning yozgan go'zal bayotlari, qilgan ishlaridan xulosa yasagan holda uning "portret"ini "chizish"ga urindi.

Omon Muxtorning yangi romani Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Asarni qo'lga olar ekansiz, hayolingizdan bunday fikr o'tadi: "Omon Muxtor bu murakkab mavzuning qaysi tomonini ochib berdi ekan?!"

Qariyb 40 yillik mehnati bilan o'zbek adabiyoti taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallagan adib bekorga vaqt sarflab qalam tebratmasligi aniq. Shunday ekan, avvaldanoq asardan yangi nimalarnidir kutasiz.

Omon Muxtor – ijod sirlarini hiyla anglagan yozuvchi. U keyingi yillarda qator romanlar yozdi. Bu asarlar adabiy jamoatchilik va munaqqidlar tomonidan ijobiy baholandi. Ular aksariyati qisqa hajmda, 120-150 bet doirasidadir. Ammo yozuvchi qisqa hajmga katta hayot materialini, serqirra ma'noni joylay oladi. U hali o'zbek adabiyotida ko'p ham taraqqiy etmagan yangi uslubning negizi shartlilikdan unumli foydalanadi. Uning qahramonlari ruh sifatida jonlanib, hayotligida chekkan jabr-u jafolar, dard-u dog'larini to'kib solishi mumkin. Ba'zi o'rinlarda uning qahramonlari yer tagiga tushib, boshqacha hayotni ko'rishi, allaqachon dunyodan o'tib ketgan biror kimsani izlashi ham mumkin.

Bunda uslubiy yo'l yozuvchiga hayotdagi o'tgan sirli voqealarni qayta tiklash, bir vaqtlar aytish mushkul bo'lgan hodisalarni tilga olib, ular haqida realistik manzara yaratish imkonini beradi.

Uslubiy jihatdan, Omon Muxtorning bu yangi asari shartlilik qo'llangan oldingi romanlarga ma'lum darajada o'xshab ketsa ham, ulardan keskin farq qiladi.

Bu yerda u qahramonning, ya'ni Alisher Navoiyning real hayotini ko'rsatishga harakat qiladi. Ammo u yana o'ziga xos yo'l tutadi. Bosh obrazni shoirning ijodi orqali yaratadi. Navoiyning she'r va dostonlaridan olingan misra va parchalar orqali ulug' shoir siymosini ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Navoiyning ijodi bamisoli ummon. Til va ifoda jihatidan sodda emas. Demak, bu ummonning har tomonidan sho'ng'ib, har bir gapning ma'nosini chaqib, ulug' shoir hayoti, ichki olami, u yashagan muhit sirlarini ochish, shu asosda bu siymo haqida e'tiborga sazovor asar yaratish ham oson emas. Uzluksiz mehnat, o'tkir did, mavzuga nisbatan cheksiz muhabbatni talab qiladi. Omon Muxtor bu ishning uddasidan chiqqan.

Asarni o'qib bo'lgach, yozuvchining Navoiy obrazini yaratishda ba'zi bir yangiliklar topgani hayolingizda yana ham aniqlashadi. Ba'zi nuqtalar esa tamom yangilanadi. Bular Navoiyning yoshlik paytlaridagi badiiy ijod sirlarini egallay boshlashi, yigitlik chog'laridagi ba'zi bir voqealar, jumladan, Guliga bo'lgan muhabbat jilolari. Asarning ko'p qismi yana bir muhim masalaga bag'ishlangan. Ma'lumki, Navoiy hayotga aksariyat hollarda tasavvuf falsafasi jihatidan yondoshadi. Omon Muxtor shoir ijodini o'rganib, shunday misra va parchalarni asarga kiritadiki, ular orqali biz ilohiy muhabbatdan tashqari, Navoiy real hayot muhabbatini, hayotda bor real yorni nazarda tutib yozishga ham yetarlicha e'tibor berganini anglaymiz. Asosan romantik shoir sifatida baholanib kelgan Navoiyning asarlari realistik motivlar bilan to'la ekan-da, degan xulosaga kelimiz. Nazarimda, romanning muhim tomonlaridan biri ham shu.

Omon Muxtor romanida ijtimoiy va siyosiy muhit tasviriga ham katta o'rin beriladi. Bu yerda u Husayn Boyqaro bilan Alisher orasidagi munosabatni diqqat markazida tutadi. To'g'ri, Navoiyga bag'ishlangan boshqa asarlarda ham shoir va ijtimoiy muhit bosh masala. Omon Muxtorning xizmati shundaki, hayotning bu tomoniga tegishli xulosalarni ham u to'la ravishda Navoiy ijodidan keltirib chiqaradi. Ijtimoiy hayot manzaralarini nazardan qochirmasdan, ijod psixologiyasiga ko'proq diqqatni jalb qiladi. Bu asar asosan, Navoiyning ijod psixologiyasini ochib berishga bag'ishlangan.

Ilm adabiyot emas, shuningdek, adabiyot ham ilm emas. Bu hammaga ma'lum. Biroq badiiy ijod tajribasida ular goho bir-birlariga yaqin keladilar. Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarning barchasi bir qirrasini bilan tarixga tegishli bo'lsa, ikkinchi qirrasini bilan badiiyatga tegishlidir. Omon Muxtorning mazkur tajribasi shuni ko'rsatayotiki, uning asarida bu ikki qirra – tarixiylik va badiiyat mustahkam ravishda birlashgan. Ikki tomon – bir yaxlit. Bu xildagi asarni sof ilmiy yo'nalishda yaratish qiyin. Uni ilmdan boxabar, badiiyatda yetarli tajriba orttirgan yozuvchigina amalgam oshira oladi.

Bu uslubda asar yaratish Omon Muxtor uchun dastlabki qadam emas. U oldin Lutfiy ijodiga bag'ishlangan asar ("Tepalikdagi xaroba" romani)da buni sinovdan o'tkazgan edi. Yangi romanni yozuvchining yuqori va ancha mukammallashgan uslubi yutug'i, deb hisoblash mumkin.

Umuman, Omon Muxtorning Navoiyga bag'ishlangan asari faqat navoiyshunoslik, navoiyxonlik olamida o'ziga xos badiiy tajriba bo'lmay, balki o'zbek adabiyotining taraqqiyotida ko'zga tashlanadigan muhim yangilikdir.⁴⁹

Asar haqida gapirishdan avval uning qurilishidagi alohidalikka e'tibor qaratmaslikning imkoni yo'q. Buyuk shoir haqidagi qaysiki yaratilgan ijod mahsulini olmang hammasida voqeliklar XV asr lavhalari bilan boshlanadi, ammo Omon Muxtor yaratgan romanda unday emas, Odil ismli kimsaning Barnoga atab yozgan maktubidan boshlanadi. Navoiyga atalgan romanda Odil-u Barnolar nima qilyapti, deysizmi? Ha, muallifning uslubidagi o'zgachalik ham shunda. U shoir hayotini bir rassomning kundalik daftari orqali ochib berishga intiladi. Rassomki, butun umrini Navoiy dahosining siymosini topishga intilgan, chizishni orzu qilgan va bu yo'lda borini tikkan inson – Abdulhayr:

"Bolaligimda, sandalda yonma-yon o'tirib, buvim menga Mir Alisher g'azallarini o'qib bergan, ajib rivoyatlar so'zlagan edi. Shundan buyon Hazratning bo'y-bastini ko'rgim keladi. Izlanaman. Lekin, bundan qachondir biron natija chiqadimi, yo'qmi?! – bilmayman.

⁴⁹ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.15

Yoshim 60 ga yaqinlashdi.

Shoirning butun umri!

O'zimni tog' etagidagi chumolidek sezmoqdaman.

Faqat mehr bilan hech narsa qilolmaysan.

Faqat orzu bilan ish bitmaydi.

U – bir Osmon.

U – bir Ummon.

Qamrash qiyin!

Navoiy to'g'risida yuzlab kitoblar yozilgan.

Ammo ko'nglim to'lmaydi.

Bularning aksarida u tirik odamdan ko'ra ko'proq devordagi suratga o'xshaydi".⁵⁰

Ko'rinib turibdiki, Abdulxayrning yuqoridagi so'zlari uning buyuk siymoga muhabbatining nechog'li yuksak ekanidan dalolat. U o'zining 60 yoshga, Navoiyning butun umrini tashkil qilgan yoshga yetganini o'ylar ekan, shu bilan birga Navoiy ijodi oldida, uning xalqqa tekkan nafi oldida buniki to'g'ning oldida qanchalik ojiz va notavon ko'ringan bo'lsa, ayni shunday ekaniga ham iqrar bo'lmoqda. Yoshlikda, o'sha bolaligida buvisi aytib bergan rivoyatlarda Navoiy siymosini tasavvur etishni boshlagan bolakay yillar o'tib, u haqda o'qib, o'rganib ham aniq bir tasvir topa olmagan, shoirning Osmon, Ummon ekani-yu, qamrab olishning imkoni, iloji yo'q ekani ayni haqiqat. To'g'ri Navoiy portretini minglab, millionlab nusxalarini topishimiz, ko'rishimiz mumkin. Ammo Abdulxayrning bularning hech biridan ko'ngli to'lmaydi. Nazarida, Navoiy siymosiga bu chizgilarda ruh kirmagan, nimadir yetishmaydi va devorga osilib turishdan boshqasiga yaramaydi. Rassomning hamon izlanishda ekanini asarning keyingi lavhalaridan ham ko'rishimiz mumkin:

⁵⁰ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.17-18

“Taxminan 50 yildan oshdi. Lekin men uni hamon “taniy” olmadim. Hayoti qanaqa?! Ijodi nimadan iborat?! Tushunib yetdim deyolmayman. Qancha azoblanmay, Uni Ko’kdan Yerga tushirishga erisholmayapman. So’nggi paytlar charchadim. Sog’ligim yaxshi emas. Buning ustiga, kutilmagan qiziq holatlar yuz bera boshladi. Yarim tunda eshik taqillaydi. Ochsang, zog’ ko’rinmaydi. Qo’ng’iroq bosim jiringlaydi. Dastakni ko’tarsang, jimjit. Tushlarimga allaqanday darvesh-qalandarlar, gadolar kiradi. Meni dashti-sahrolarga bosh olib ketishga chorlaydi. Goh-goh bo’lsa-da, o’lim haqida eslayman. Yuragim orqamga tortadi. Uch yildan buyon ayniqsa, kunim uyda bekorchilik bilan o’tyapti. Umrimda bajaradiganim ishim qolmagandek kayfiyat! Holsizlik va tushkunlik.. necha bora o’zimni chalg’itish uchun hozircha yana tasodifiy birovlariga “haykal” qo’yaverishga chog’landim.Otga minib, tizginni tortgandek edim. Biroq ish qog’ozga qalamda chizgilar tushirishdan nariga o’tmadi. Xayol qayta-qayta Mir Alisher tomon yetaklaydi”.⁵¹

Navoiy shaxsini aniqlash, u haqda qandaydir tasavvurga ega bo’lish uchun albatta, avvalo, uning ichki va tashqi olamini – zohiri va botinini – anglash lozim. Roman muallifi ham aynan shu yo’ldan yurdi. Buning uchun minglab shoir baytlarini titkilab chiqdi. Ko’plab shubha-gumon, ikkilanishlardan keyin quyidagi fikrga keldi:

“Qanday bo’lmasin, Navoiyning Butun Hayoti va Butun Ijodida – unga xos Tashqi Osoyishtalik va Qat’iyatga teskari holda – Ichki bir ZIDDIYAT ko’zga tashlanadi. Uning Hayoti va Ijodi boshdan-oxir katta-kichik, har xil Ziddiyatlarga qurilgan! Aftidan, Qismatning O’zi uni shunday holatga solgan”.⁵²

Adibning bunday xulosaga kelishiga bosh sabab: Alisher Navoiyning na oilasi, na yaqinlari va na o’zining shaxsiy hayoti haqida aniq ma’lumotlarning bo’lmaganidir. Haqiqatda ham barcha davrlarning eng buyuk shoiri haqida ma’lumotla nega bunchalar kam? Nega hatto onasining ismini bilish imkoni yo’q?! Nega Mir Alisher yuzlab shoirlar, zamondoshlari haqida o’z asarlarida (hatto

⁵¹ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.17-18

⁵² Ўша асар.

ularga bag'ishlangan alohida asari ham bor) yozadi-yu, o'zi haqida, o'z oilasi haqida to'xtalmaydi?! Bularning barchasi mavhum? Barchasi yopiq! Balki o'z asarlarida yozgandir ham, ehtimol, biz hamon anglay olmagandirmiz... Bunisi yana bir jumboq.

Yosh Alisherning ishq dardiga chalingani, Guli ismli qizni sevib qolgani, ammo bundan xabardor bo'lgan g'animlari qizning ta'rifini shohga yetkazgani, do'stining muhabbatidan bexabar shoh Husayn qizni xaramga keltirishlarini buyurgani, oshiq bunga qarshi hech qanday chora ko'rmagani va oqibatda Guli og'ir kasallik bilan vafot etgani, shoirning keyin uylanmasligiga ham o'shanda ichgan qasami:

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayriga parvo aylasa,
Har ko'ngul hamki, sening shavqingni paydo aylasa.

O'zgalar husnin tomosho aylasa chiqsin ko'zum,
O'zga bir ko'z ham sening husning tomosho aylasa.

Har kishi vaslin tamanno aylasam, novmid o'lay,
Har kishi hamki, sening vasling tamanno aylasa...

sabab ekanligi haqida turli rivoyatlar keltirilgan, hatto Navoiy to'g'risida asar yaratgan ijodkorlar ham bu holatni aynan shu va shunga o'xshash tarzda ifodalaganlar. Ammo Omon Muxtorida shu yerda ham turli savollar yuzaga keladi va buni asarida rassom – Abdulxayrni qiynagan so'roqlar bilan ko'rsatadi:

“Ammo bugun ertalab daftarni varaqlab o'tirib, boshimga musht tushirdim. Shunchaki tasavvur bilan ish bitar ekanmi?! Alisher garchi 20 dan 35 yoshgacha paytni yigitlik davri desa-da, bu davr Sharqda doim ertaroq boshlanib, kechroqqacha davom etgan.

Agar Alisher va Guli voqeasi chindan ro'y bergan bo'lsa...

bu voqea Alisherning 16 yoshdan uzog'i bilan 28 yoshga kirgunicha vaqtni qamrab olishi mumkin.

(Husayn birinchi xotiniga 18 yoshida uylangan edi.)

Endi qarang! Bu davrda (Alisher 16 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan paytda) Xuroson podshohi Husayn Boyqaro emasdi! Husayn ora-orada ma'lum muddat Astrobod hokimi bo'lgan, asosan sargardonlikda, quvg'inda yurgan edi.

Bu davrda Alisher u bilan kam ko'rishgan. Ular bir-biriga iliq xatlar yozib turgan.

Shundan keyingi 7 yil (35 yoshgacha) Husayn saroyida xizmatda bo'lgan Alisher yosh qiz Guli bilan yashirin aloqa o'rnatib, uchrashib turganiga esa aql bovar qilmaydi (u endi butun Xurosonga mashhur: katta-kichik tanigan kishi, salobatli arbob edi. Yolg'iz ham yurmasdi). Ayniqsa, buning Birinchi Muhabbat bo'lganiga ishonish qiyin (u 14-15 yoshidan sevgi, sevgili degan so'zlarni yaxshi tushungan). Alisher saroyda yurgan davr tilga olingan o'nlab rivoyatlarda, u kasal edi. Husayn bir masalani hal etish uchun odam yubordi, qabilidagi gapga duch kelamiz. Xastalik azobi ham, albatta, bo'lgan. Ammo u ko'proq uyda bekinib o'qish, yozish bilan mashg'ul edi. Bu davrda Alisher yo saroyda tashvish, yo uyda ish bilan band edi.

Demak, muhabbat mojarosiga Husaynning daxli yo'q!"⁵³

Muallifning Mir Alisher baytlari orqali "topgani", qilgan bashoratlari ichida yana biri avval hech qayerda uchramagani bilan xarakterlidir. Ya'ni, u Navoiyning ba'zi baytlarida "may" so'zi tasavvufiy ta'limotdagi kabi "ishq – Ollohga bo'lgan ishq" ma'nosida emas, o'z ma'nosida qo'llanilganini ta'kidlaydi. Hamda buni shoirning yozganlaridan misollar keltirish orqali isbotlashga urinadi:

"... Shu paytda Alisher dunyoda shunchaki BIR ODAM singari yashashni istab qoladi! Ba'zan (o'zining doim aniq rejali ekanligiga zid) shunday xayolga ham boradi:

Ne sog' o'layki, chu borg'umdur,
o'lmayin ma'lum –
Bu korxonaning
anjomi birla og'ozi...

⁵³ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.22

Unga “sog’ o’lish” (hushyor yurish)dan “mastluq” afzal tuyula boshlaydi. U goh – so’z ramziy hol emas, - amalda mayga yuzlanadi (Tut quyoshdek jomni...).

Dunyoni, mashaqqatli, kimsasiz (balki, ma’nosiz) o’z hayotini biroz unutib, o’zi-o’zini ovutgisi, bazm qurgisi keladi:

Do’stlug’ aylab,
tutung gah-gah labo-lab jomkin, -
Qasdi jon qilmish menga
Dardi humor...

Lekin “may” unga faqat she’rda yoqishi mumkin!”⁵⁴

Bizga ma’lumki, Alisher Navoiy Oshiqlardan bo’lib, aksar g’azallaridagi yor timsoli Ollohga bag’ishlangan, ammo asar muallifi undagi “yor”ning boshqa timsollari ham bor ekanini isbotlab berishga tirishdi va buning uddasidan chiqdi ham:

“G’azallarda qaysi Yor tasvirlangan?

Ohang, ruh har xil...

eng avvalo, u Ollohnin ulug’laydi.

(Ilohiyot haqidagi gapda biroz jon bor. Ollohnin sevish Ishq Ahli ijodida martaba sanaladi. So’zga ramziy bir ma’nolar beriladi.)

Yor aksin mayda ko’r, deb
jomdin chiqdi sado...

(Yor – Olloh.

Jom – olam.

May – hayot.)

Shohni Yor timsolida ko’rib, undan “o’pkalanib” yozgan g’azallar ham yo’q emas:

Kimsa ko’nglin, kimsadan istab vafo, oldurmasun,
Kim, menga hud etmadi ul ko’nglum olg’ondan vafo...

⁵⁴ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.46

(Shundan keyin, gap kim haqda ekanligini ochiq ham aytadi:

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqdi ul Sulton Husayn,
Topding eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo...)

Va'zan Xalqni – Yor, deb undan shikoyatlangan satrlar ham ko'rinadi.

Taxminan:

Har kishi yor oldida der, chinni ham, yolg'onni ham,
Vahki, ul bovar qilur voqe'ni ham, bo'xtonni ham...

(Sal keyinroq “gap egasini” topadi:

Ey ko'ngul, davr ahlig'a yo'q va'dau paymon...

Ba'zan esa chiroyli odam, umuman chiroy bahonasida mehr bilan ishq
orasidagi holat:

Men qari quldurman, ul mirzo yigit... –

degandek.

Alisher Birinchi Muhabbati – Gulini eslab ham, nimalardir yozadi:

Yoshrun'g'on emish qaro bulutg'a mohim,
Gardunni sovurmoqqa erur dilhohim,
Kirmish qora-tuproqqa quyoshdek shohim,
Nechun qora qilmasun falakni ohim?!

Demak, “Yor ko'yida” uning yozganlari, asosan:

Ollohga,
Shohga,
Xalqqa,
Chiroyli odamga,
Guliga bag'ishlangan”.⁵⁵

Muallifning fikricha, Alisher Navoiy yoshlikdagi Guliga bo'lgan muhabbatidan tashqari keyinchalik ham bu baxtga muyassar bo'lgan. Ammo uning

⁵⁵ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.49

kim bo'lgani – Davlatbaxtni yoki Notanish go'zalmi – noma'lum, jumboq. Ammo yozuvchi fikriga tayansak, u, albatta, bor. Zero, Farhod va Shirin, Layli va Majnun o'rtasidagi o'tli muhabbatni tasvirlash uchun, ijodkorning o'zi ham shu holatda bo'lishi, o'z tanasida his eta olgan bo'lmog'i lozim. Lekin buni hech kim bilmagan, Navoiy hammadan “pardalagan”, yashirgan. Biroq uning Ollohdan yashirmagani, kimnidir (ehtimol, Pahlavon Mahmud yoki shunga o'xshash yaqin do'stini) guvoh qilib, nikoh o'qitganiga ham ishora qiladi. Bu haqida asarda shunday qayd etilgan:

“(Zamondoshlari ham, biz ham VOQEAni bilmaganmiz befarqlikdanmi?! Go'llikdanmi?!)

Bir payt Guliga bag'ishlab yozganlarida bo'lganidek, uning g'azallarida yana ranglar tiniqlashadi! Sharq she'riyatida bor shartlarni buzmagani holda, ularga endi gurkirab hayot kiradi. Ehtiros “darajasi” yuksaladi!

(Shu o'rinda aytaman. Noma'lum Go'zal bo'lmasa, faqat g'azallar emas, Alisher “Xamsa”ni yozganida ham Layli va Majnun, Farhod va Shirinlar ishqini “to'lib” chizolmas edi! Unda hatto Guli ham “yordam” berolmas edi!)...”

“... Mana, bu – minglab g'azaldan biri, boshqalarni bilmadim, shaxsan o'zim necha bora o'qib, Alisher O'SHA KUNLARni ajabki, BORICHA, MUKAMMAL tasvirlaganini sezmagan ekanman! Behosdan diqqat qilib, dong qotdim.

Xudodan yashirmagan bandadan yashirmaydi!

Alisher o'shanda chamasi, o'zining “dunyo arusin taloq qilish” haqidagi AHDI buzilayotgani, odamlar malomati, bu ishning oxiri yomon bo'lishi mumkinligi – hech narsani o'ylamagan! Olamdan ketayotgan INSON singari YALANG NAMOYISHda el-ulus qarshisiga chiqqan!”⁵⁶

Navoiy hayotining so'nggi ham, rassom Abdulxayr nihoyat o'z orzusiga yetishib, tinimsiz mehnatlari samarasini ko'rgani – buyuk Inson siymosini gavdalantirgani ham asarning yakunidan joy olgan bo'lib, o'quvchi bu shakli

⁵⁶ Мухторов О. Ишқ аҳли // Шарқ юлдузи. 2001. №1. – Б.55

kichik, ammo mazmun doirasi olamlarga teng roman taassuroti bilan oylab yurishi shubhasiz.

“Ishq ahli” romani, xususan, Navoiy obrazi – dahosi xususida, bu asarning yozilishiga turtki bo’lgan motivlar to’g’risida Omon Muxtorning o’zi quyidagicha fikr bildiradi:

- ... Men asarda Navoiy obrazini suratdan siyratga aylantirgim keldi, u daho bo’lgani holda, yerda yurgan bir odam, bir banda bo’lganini tasavvur qilib, uni shu sifatda aks ettirgim keldi.

Navoiyning shaxsiy hayoti, ijodi, tafakkuri bizning tasavvur etganimiz yoki tasavvur eta olganimizdan ming barobar keng. Biz bir nigohgina tashlay olamiz xolos. Mana shu bir nigoh – rassomning nigohi orqaligina men uni suratdan siyratga aylantirishga urindim-da, qaysi davrda yashagan, qanday yashagan, nimalarni o’ylagan – shularni ham faqat rassomning tasavvuri orqali aks ettirdim. Navoiy tafakkurini anglash, uni tushunib yetish diqqat markazida bo’ldi.

Bu gaplarni batafsilroq aytishimga sabab, bizning ba’zi adiblarimiz, olimlarimiz shunday talablarni qo’yishadiki, bir asarda go’yo hamma narsa bo’lishi kerak. Sen Navoiy haqida yozdingmi, mukammal tasvirlashing kerak. Axir, birodar, odam o’zining holatini ham bilishi kerak-da, sen ham bilgin, men ham... Hali aytganimdek, u shunday cheksizki, uni mukammal aks ettirishning iloji yo’q! Asrlar mobaynida, barcha avlodlarning Navoiyga bo’lgan qiziqishi, ehtiromining abadiyligi boisi ham shunda-da! Yangi avlodlar yangidan murojaat qiladi. Men Oybek domlalarining, Mirkarim Osimning avlodidan keyin o’z avlodimizning bir nigohini izlashga harakat qildim.⁵⁷

Bundan tashqari adib o’z suhbatlarida Hazrat Navoiyning asarlarini bosishdagi bosmaxonalarda yo’l qo’yilayotgan xato-kamchiliklardan ozurda ekanini ham ifodalaydi. Zero birgina xato – tinish belgidagi xato ham g’azal mazmuniga tubdan o’zgartirish kiritishi mumkinligi isbot talab qilmaydigan ayni haqiqatdir:

⁵⁷ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. Т. 2011. Б.258

- Navoiy haqida asar yozaman degan odam, tabiiy, uning asarlarini qayta-qayta o'qiydi. Qayta-qayta o'qigan sayin bu asarlarni chuqurroq tushuna boradi. Mana shu o'qishlar jarayonida biz Navoiyning birorta kitobini xatolarsiz bosmaganimizga guvoh bo'ldim va bu mening eng katta o'kinchim. Birovga malol kelmasin-ku, lekin biz Navoiyning asarlarini hech bir, hattoki, tinish belgilarida ham xatosiz nashr etishga erishishimiz kerak. Afsuski, ba'zan jiddiy, ba'zan oddiy xatolarga duch kelamiz. Mana, "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi")dan bir-ikki misol. "G'aroyib us-sig'ar" qismida, 28-betda Olloh ma'nosidagi "Kirdigoro" so'zi "kirdgoro", deb bosilgan. Ko'p joylarda "qaro" so'zi bilan "qora" so'zi adashib yoziladi. "Menga" va "mango" so'zlari ham shunday. Navoiy bu so'zlarni ikki xil ishlatadi, u tilning boyligini ko'rsatadi. "Xonumonimni qaro qildi yuzi qora ko'ngil", deydi. Shoir bu so'zlarning har bir shaklida chuqurroq ma'noni ko'rgan va biz ularni aynan o'z shaklida yozishimiz kerak. Ba'zi o'rinlarda, masalan, "ushalg'ay" so'zi "ushlag'ay", "yora" so'zi "yara" tarzida xato bosilgan. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bundan xulosa shuki, biz Navoiyning har bir so'ziga juda katta e'tibor, e'zoz bilan yondashishga burchlimiz.

Yuqorida muxammas haqida gapirdik. Navoiy g'azaliga muxammas bog'layman, deb ko'cha gaplarini tizib, vaznni buzib, g'azal ruhiga tushmay yozish, menimcha, bu ham jiddiy xato, hatto odobsizlik.⁵⁸

⁵⁸ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. B.259

III Bob. Omon Muxtor she'riyatida inson ruhiyati jilolari va badiiy mahorati.

3.1. Omon Muxtor she'rlarida ijtimoiy-siyosiy mavzu va g'oyalar.

Har bir shaxs o'z fikri, mulohazasini yoritayotgan mavzusi bo'yicha to'plagan bilimlari, qarashlari, o'y-hislari, qolaversa, o'sha nutq qilinayotgan davr ruhiyatidan kelib chiqqan holatda bildiradi. Ayniqsa, davr ruhiyatini to'g'ri tushunish, anglash hammaning ham birdek qo'lidan kelavermaydi. Ba'zan esa davrning buzuqliklarini teran his qilgan farzandlarini "davr"ning o'zi boshiga yetadi. Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosirlar taqdiri buning yaqqol misoli bo'la oladi. Ularning muhitga nisbatan qilgan to'g'ri tanqidlari qabul qilinmay, har bir so'zi boshlariga to'qmoq bo'lib urilgani hech kim uchun sir emas. Ayni yozuvchi-shoirlarning izdoshi bo'lib bo'y ko'rsatgan ijodkorlarning biri sifatida Omon Muxtorni ham olishimiz mumkin. Uning o'tgan asr 90-yillarida qilgan ijodini titkilar ekanmiz, ularda davrdagi chirkin hislar, erksizlikning alamlari mahorat bilan, ta'bir joiz bo'lsa, qattiq nafrat bilan yoritib beriladi.

Vatan mavzusini tilga olar ekanmiz, ko'ramizki, har bir shoir Uni eng mo'tabar zot – Onaga qiyoslashini bilamiz:

“Vatan, Ona so'zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo'tabar, aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o'g'il-qiz –
Sharaflar, shonlarga to'liq, Vatanim,
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan!”

(Uyg'un)

“Dunyo shoirlari Vatan sha'niga
Sifat axtarmishlar qator va qator.
Nihoyat kelmishlar bitta ma'niga:
“Ona Vatan” deya bitmishlar ash'or”.

(A.Oripov)

“O, Ota makonim, Onajon o’lkam,
O’zbekiston, jonim to’shay poyingga.
Sendek muhtasham yo’q, seningdek ko’rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga!”

(M.Yusuf)

Guvohi bo’lganimizdek, yuqoridagi misollarda shoirlarning Vatanni madh etishida “Ona” o’zgacha o’rin egallab, u ijobiy bo’yoq bilan sayqallangan, she’rga mehr, sevgi ruhini olib kirgan. Omon Muxtor she’riyatida ham Vatanni Onaga qiyoslanganining guvohi bo’lamiz, ammo ijodkor ommadan ajralgan holda, bu o’xshatishga o’zgacharoq yondashadi. XX asrning 1-yarmida avj olgan qatag’on siyotida, u orqali millat kelajagi uchun kurashgan o’g’lonlarning aksariyati hayot bilan vidolashishiga “Ona Vatanni” go’yoki bosh aybdor sifatida ko’radi:

Ona deb atalgan biror yurt,
Shunchalik, bilgani qatag’on –
Bolasin beqabr-u betobut,
Tuproqqa qorganmi hech qachon?!

Bir yerda

o’qigan, eshitganmidim -

Dunyoda bo’larmish

shunday hayvonlar:

O’z tuqqan bolasin,

ochiqqanida,

Yemoqqa tusharmish,

Ko’zida qonlar...⁵⁹

Shoirning ruhiyatidagi isyonkorlikning nihoyat darajada kuchli ekanligi necha ming, million yillardan buyon faqat go’zal so’zlar, chiroyli o’xshatmalar bilan qo’llanilgan Vatan so’zini hayvonga tenglashtirayotganida g’oyat aks etadi. Shoir go’yoki ma’naviy quvvat olgan Ustozlarini Vatan o’ldirgan deb, xuddi unga

⁵⁹ Мухторов О. Эркин учайтган куш // Шарқ юлдузи. 1991. №1. – Б.78

nisbatan nafratda bo'layotganday taassurot uyg'otadi, holbuki, bu yerda Vatanning o'zi ham davr qurboni, muhit chirkinligining asiri sifatida shoir qalbini egallagan, unga cheksiz alamlar solgan edi. Buni u keyingi jumllarida yaqqol ko'rsatib beradi:

Haq so'zga, ona-yurt, o'ksinma,

Davrda, ehtimol, bor gunoh.

Bir hasrat, bir armon ko'ksimda,

Yo'q kabi dunyoda hech panoh.

Ijodkorning yana bir she'ri – “Erkin uchayotgan qush”ni olib ko'radigan bo'lsak, unda qarama-qarshi fikrlarning bir mutanosiblik ostida birlashtirgani va u orqali ortiqcha jimjimadorlik, bo'yoqdorliklarsiz; oddiy so'zlar bilan bir millat farzandining erkka, xalq ozodligiga bo'lgan intilishini, orzu-o'ylarini aniq va ravshan ko'rsatib beradi. Garchi minglab yillar oldin quldorlik jamiyati butunlay yo'q qilingan bo'lsa ham, ayni davrda o'z millatdoshlari ma'naviy qulchilikni mahkam tutganliklarini otashin nafrat bilan, zo'r achinish bilan qalamga oladi:

Biz kechganmiz qullardan;

Tariximiz ming yillik.

Biz yaralgan qullardan;

Qonda bor hamon qullik.

Ko'rib turibmizki, shoir qullar allaqachon yo'q bo'lib ketganini ta'kidlash bilan birga, o'zining va o'zi qatori zamondoshlarining hamon tomirlarida qullik qoni oqayotganini; bundan voz kechish, jismlarga yangi “qon quyish” lozimligini uqdirishga o'tli so'zlar topa oladi:

Biz ertadir-kechdir,

yetmoqlik uchun

Hayotda yangi bir insonliklarga.

Qarshi

chiqmolikka

burchlimiz butun,

Dunyoda uchragan,

Hayvonliklarga...⁶⁰

Omon Muxtor ham nasrda, ham nazmda birdek shiddat bilan ijod qilgan kam sonli ijodkorlardan bo'lib, o'z qarashlarini nasrda ham muvaffaqiyatli ko'rsatib bera olgan. Sobiq Ittifoq davri odamlarining beparvoligi, e'tiborsizligini ustalik bilan yoritgan. Bunda xalqning o'zida bo'lgan ko'plab rivoyat, latifalardan ham foydalangan. Masalan, "F-fu" romanida qo'lidan hech ish kelmay yurgan Toshtemir birdaniga bor-badavlat bo'lib, odamlarni o'z ortidan ergashtirib, og'ziga qarab turadigan qilgan lavhada bir latifadan foydalanadi va u orqali davr odamining qarashlari qanday ekanini ochiq-oydin ko'rsatib beradi:

"Eng avval...

Shunday latifa bor:

Qadimda bir hukmdor

sinash uchun olomonni maydonga to'plabdi.

Yarim murojaat, yarim buyruq ohangida:

- Yaqin kunlarda yer-suvlaringni tortib olishga to'g'ri keladi, - debdi.

Olomon indamay uy-uyiga tarqalibdi.

Uch-to'rt kundan so'ng hukmdor

Yana olomonni to'plabdi.

- Bundan keyin er-xotin hammang bitta ko'rpa ichida yotasanlar!

Olomon bu gal indamay uy-uyiga tarqabdi.

Hukmdor bo'g'ilib, ko'p o'tmay

Odamlarni yana to'plabdi:

- Ertaga ana shu maydonda hammangni osaman!

Taajjubki olomon odatdagiday indamay tarqalayotgan emish! Faqat birgina kishi botinib-botinmay hukmdorga yuzlanibdi:

- Onhazrat... Arqonni o'zimiz kaltiraylikmi yoki berishadimi?!"

Bundan tashqari latifadan so'ng: "Tarix bo'yi umri qullikda o'tgan odamlar - Shu! Xalq - shu!" - deya kuyunib qilgan e'tirofi bundan ko'p emas 30-40 yil oldingi o'zbeklarning qanchalik g'aflatda bo'lganini; erk, ozodlik haqida

⁶⁰ Мухторов О. Эркин уचाётган куш // Шарқ юлдузи. 1991. №1. – Б.79

o'ylamagani, umri buyruqbozlik siyosati ustuvor bo'lgan jamiyatda, inson qadriyatini bir tiyinga qimmat baholangan muhitda bamaylihotir umrguzarolik qilganiga bo'lgan butun alamini yaqqol ko'rsatib beradi.

“F-fu” romani bosh qahramoni Toshtemir singari tasodif tufayli olomon ustiga bosh bo'lib qolgan savodsiz, omi, mansabparast amaldorlarni qoralab yozilgan she'rini olib qaraydigan bo'lsak, u orqali millat boshida turganlarning o'zlari xalqni botqoqlikdan chiqarish o'rniga, ularni qayta va qayta “botirayotgan”lariga alohida to'xtalib o'tadi:

To'rachilik – davr illati,
Ajablanish mumkin goh damlar.
Ko'chadagi oddiy odamlar,
Birdan ba'zan to'ra bo'ladi.

...Ro'parangda temir bir devor,
Ezgu hislar qalbda o'ladi.
Davr o'zi qandaydir bemor...
To'rachilik – davr illati!⁶¹

Omon Muxtorning o'zi kabi o'ylagan, fikrlagan ko'plab ijodkorlardan farqi shundaki, u o'z Ona diyorining ozod bo'lganini, mustaqillikka erishganini ko'rdi, erkin nafas olgan xalq bilan hamnafas bo'ldi, kindik qoni to'kilgan tuprog'ining jahon miqyosida o'z o'rnini, mavqeyi, obro'-e'tiborga ega bo'lganidan sevindi. Unga qadar erkni izlab, ozodlikni qidirib qancha tunlar zor yig'lagani, bedor bo'lgani achchiq, qo'rqinch tush kabi o'tib ketdi. Uning qalbidan yangrab chiqqan so'roqlar allaqachon o'z javobini topdi:

Erk, qaydasan? Qayerlardasan?
Men uchun kam - bir hoy-u havas.
Qo'rqitadi qo'rqinch ba'zan –
Bizda bo'lsa neki muqaddas...

⁶¹ Мухторов О. Эркин учайтган куш // Шарқ юлдузи. 1991. №1. – Б.78

3.2. Shoirning o'quvchi tasavvuriga go'zal "chizgilar"i.

Omon Muxtor siymosini men hamisha hokisor, o'ychan, uzoqlarga tikilgancha nim tabassum qilib turgan holida tasavvur qilaman. Uning nasri qanchalar xayolot "ummon"ining ko'piklaridan tarkib topgan bo'lsa, nazmi undan sira qolishmaydi. Omon Muxtor ham, asarlari ham sirtdan qaragandan tinch, osoyishta oqayotganday taassurot uyg'otadigan okean suvi bo'lsa, u istalgan paytda girdoblar xosil qilishi va yoki kuchli to'lqinlar yasab, shovqin ko'tarishi mumkin – uning hamma sir-u asrori suvning ostida.

Ushbu so'zlar "g'or ketmasin" uchun adibning adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonov bilan qilgan suhbatlarida aytgan bir gapini keltirib o'tay: "... Bilasiz, men Mustaqillikni baxt deb bilgan, bu kungi katta o'zgarishlar qadriga yetgan, hozirgi olib borilayotgan siyosatga yuz foiz hayrixoh kishiman".

"Yashirmayman, asosan, Mustaqillik yillari yozuvchi sifatida ko'proq tanildim. Olifta gap emas, men uchun shu Vatan, shu Xalqdan aziz narsa yo'q. Nimaiki yozmay, Vatan ozodligi va obodligi, Xalqning yanada, boridan ham ziyoda, ko'rkam hayot kechirishini orzu qildim. Birodarlarim qatorida, kuch-qudratim yetgan darajada qalam tebratayapman".⁶²

Omon Muxtor she'riyati ham, sochmalari kabi o'zgacha ruhiyat bilan yozilgan. Unda, ayniqsa, yor tasviriga nihoyat darajada ehtirom bilan munosabatda bo'linganining, hurmati, qadri osmonlar bilan tenglashilganining guvohi bo'lamiz. Olloh tomonidan biz uchun kaftimizda tutib avaylash, e'zozlash uchun yaratilgan ojizalarning qiymatini har qancha ko'targani unga bo'lgan, qarashlariga bo'lgan samimiy munosabatni oshirishi tayin.

Shoirning "Hozir qayerdasiz?.." she'rida ma'shuqasini sog'ingan oshiqning nihoyat darajada intiqlik bilan yorini izlayotganining tasviri tushirilgan. U aytadi:

Hozir

Qayerdasiz?

Nozanin, erka

⁶² Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.261-262.

Daraxtlar atrofda
 oppoq gullagan.
Ularga sig'inib,
Tiz cho'kib yerga,
Men so'rab turibman
Sizni
Ulardan.

Oshiq sevikli yorini izlab bog'ga kirgan, ma'shuqasining ayni shu yerda bo'lishi aniqday, zero go'zallar uchun bog'dan o'zga, yana qanday – “daraxtlar atrofda oppoq gullagan” – maskandan o'zga joy mos emasday tuyuladi unga. Shu yerda shoir o'quvchiga bir jumla bilan boshqa bir voqelikni ham ifodalab ketyapti – mavsum bahorning dastlabki kunlari ekanini. Oshiq esa gullagan daraxtlar oldida “tiz cho'kib yerga” ulardan ma'shuqasining daragini so'rab turibdi.

Ketmay ko'z oldimdan
Rangi-ro'yingiz,
Bo'g'zimni
 Kuydirgan ajib xo'rsiniq.
Mening ruhimdagi sizning ruhingiz –
Shu
 oppoq porlagan
Gullardek
Tiniq...⁶³

Bahorni muhabbat fasli ham deyishadi. Shoir buni unutmagan holda oshiqni aynan bahor boshida xijron o'chog'iga “tashladi”. Qahramon bo'g'zidan chiqayotgan “ajib xo'rsiniq” (qarang, yorining ko'yida qiyinchilik chekayotgan oshiqning xo'rsinig'i ham ajib) bilan chor atrofga tiyrak boqyapti va har neda yorining ranglarini ko'rmoqda. “Mening ruhimdagi sizning ruhingiz” jumlasini ikki xil holatda tushunishimiz mumkin. Birinchisi, “ruh” so'zi orqali xayol, o'y, fikr kabi tushunchalar tushunilib, “Mening xayolimdagi sizning o'yingiz” tariqsida

⁶³ Мухторов О. Эркин учайтган куш // Шарқ юлдузи. 1991. №1. – Б.81

yoki “men o’zimdagi sog’inchga to’la ruhiy og’riqni sizdan olganman” kabi. Ikkinchisi esa, insonning tanasi alohida, ruhi alohida bo’lishi diniy tamondan isbot talab qilmaydi, demak, muhabbatga oshno qalblarning jismlari bir-biridan yiroqda bo’lsa ham, ularning ruhlari bitta ekani ko’zda tutilyapti. Buning ustiga ruhlar oq bo’ladi, degan gap ham bor. Nima bo’lganda ham ikkisida bir xil “ruh” bo’lib, ularning rangi daraxt gullari kabi “oppoq” va “tiniq”.

“Yomg’ir bo’lib, qor bo’lib” she’ri ham yuqoridagi kabi xijronda kuygan oshiqning o’tli so’zlaridan tarkib topgan ash’or:

Bag’rim bugun to’lib-to’lib,

Ketdim Sizga zor bo’lib.

Yo’lingizda yomg’i bo’lib,

Yo’lingizda qor bo’lib.

Bu yerda xijrondagi yorning bag’ri, ko’ngil dengizi sog’inch daryolari quygan visolga zorlik suvlari bilan to’lib ketib, “Siz”ga – malakka zor bo’layotgani ko’rsatilgan. Shu yerda shoir o’zbek xalqiga xos bo’lgan bir ajib fazilatni – o’z suyuklisiga “siz” deb murojaat qilishligini ko’rsatish bilan birga, bu so’zga cheksiz hurmatini izhor qilish maqsadida uni bosh xarf bilan yozib qo’ymoqda: “Ketdim Sizga! zor bo’lib”. Uzoqlardagi suvgilining yo’llarida to’kilayotgan yomg’ir ham, qor ham oshiq o’zi ekaniga iqrar bo’lmoqda. Shu yerda bir savol tug’iladi: nega endi “Yo’lingizda”? “Boshingizga qo’nayotgan” emas, “Egningizga inayotgan” emas? Chunki oshiq o’zini bunga loyiq ko’rmayapti. O’z joyini yorning oyoqlari ostida deb bilyapti. Bu holat mumtoz adabiyotimizdagi an’anaviy o’xshatishning davomi sifatida namoyon bo’ladi.

Qochgim kelar qaylargadir,

O’zimcha yig’lab-kulib.

Qayga boray, qoldi, axir,

Dunyo menga tor bo’lib.⁶⁴

⁶⁴ Мухторов О. Эркин учаетган куш // Шарк юлдузи. 1991. №1. – Б.82

Yig'lab-kulish, qaylargadir – qayerga ekanini bilmay – qochish, odatda, telbalarga xos bo'lgan xususiyat. Bu orqali shoir oshiqning holati telbanikidan kam emasligini, nigorining ko'yida tanasi allaqanday ilohiy kuch bilan to'lib, g'ayrati jo'shib ketyapti-yu, ammo o'zini qayerga qo'yishni bilmay dunyo ko'ziga tor ko'rinayotganini ko'rsatib bermoqda.

Men umidli bu olamda
Ketmay butkul to'kilib –
Erinmasdan, bir qadamga
Kelsangiz-chi, bor bo'lib...

Xalqimizda bir naql bor: Chiqmagan jondan umid. Oshiqning hozirgi holati ham shundan kam emas. Ammo uning “umidli dunyo”da “to'kilib” ketmasligi uchun bir narsa kerak. Shu yerda oshiq o'z ma'shuqasidan biroz o'pkalagani ham ko'zga tashlanadi: “Erinmasdan, bir qadamga Kelsangiz-chi, bor bo'lib...” Ma'shuqaga shunchalar oson ish qolyaptiki, atigi, bir qadam tashlasa bas, qolganini oshiqning o'zi uddalaydi.

Hokisor ijodkor qalamiga mansub bo'lgan “Men sizni ardoqlab...” she'ri chinakam oshiqning jononi uchun aytishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng go'zal so'zlaridan tarkib topgan desak mubolag'a bo'lmaydi:

Men sizni ardoqlab,
Qo'ymay sizga shart,
Bajargim keladi
shartlaringizni.

Odatda, oshiqlar seviklilariga turli shartlar qo'yishlari, ularning ustidan hukmronlik qilishni istashlari bor gap. Ammo Omon Muxtor tipik vakil qilib olgan oshiq – o'zgacha. U shart qo'yishni emas, yori qo'ygan shartlarni bajarishni afzal ko'radi. Asli g'ururi, orini mahkam tutgan o'zbek o'g'loni, Alpomish avlodidan boshqachasini kutmaslik ham kerak. Keyingi bandda bu Alpomishzodaga hurmatingiz ikki hissa ortadi:

Men bedard bir kishi.
Menda yo'q hech dard!..

Menga bersangiz-chi

dardlaringizni?..

O'zini haqiqiy er bilgan yigitning qonini ilon so'rib turgan bo'lsa ham tishining oqini ko'rsatmaydi. Bizga ma'lum oshiq asli yor xijron o'tida qovrilib, jizg'anagi chiqib turibdi-yu, tan olgisi yo'q – “bedard bir kishi”! Aksincha, dildorining ham boshiga soya solayotgan har qanday dardni o'ziga og'dirib olish, ne ko'rgulik bo'lmasin o'zi ko'rish payida turibdi.

Men boshdan

Atadim sizni oily zot,

Ko'zga surtganimcha

gardlaringizni.

Vah! Qanday oliyjanoblik-a? Muhabbat ko'zni ko'r qilishadi, deyishadi. Bu fikr qaysidir ma'noda to'g'ridir, ehtimol u yoshlikdagi muhabbatlarga nisbatan ham aytilgandir. Xo'p, ko'zni ko'r qilib sevganining yaxsh-yomon tomonini bir xilda qabul qildi ham deylik, ammo u baribir yomon tomonini – gardlarini ko'rib, bilib turib, shular bilan birga, ularni “ko'zga surtganicha” sevishga also tenglasha olmaydi.

Sizdan men

Dunyoda kutgan iltifot:

Menga bersangiz-chi

dardlaringizni?..⁶⁵

Yana o'sha iltimos, o'tinch: “Menga bersangiz-chi dardlaringizni?..”! Faqat bu gal ifoda o'zgacha, so'rov “yo'li” o'zgacha. Avval dardi yo'q kimsa dardingizni olay, deb turgan bo'lsa, endi ma'shuqaning “dardini berishi” oshiq uchun uning iltifoti, mukofoti yanglig' yetib boradi. Bu qanday “dard” bo'ldi ekan-a?!

Tahlil uchun “tortadigan”imiz keying she'r “Sizga..” deya nomlangan bo'lib, u sevgiparastlikda Farhodni ham, Majnunni ham ortda qoldiradigan ishq dardining bemori tilidan aytilgan:

Sizga ochiq

⁶⁵ Мухторов О. Эркин учайтган куш // Шарқ юлдузи. 1991. №1. – Б.82

Mening bag'rim,
Mumkin unga
 tig' sanchish.
O'zinniki alamlarim,
Sizdan
 tuymayman ranjish.

Aksar she'rlarda yor xajrida ado bo'lgan oshiqning "ko'yingda u bo'ldim", "ko'yingda bu bo'ldim" tarzida ma'shuqadan zorlanganining, o'z holatidan og'rinishlikni kuzatamiz. Lekin bu she'r qahramoni unday yigitlardan emas, yorning bergan jabr-u jafolari, dard-u alamlarini o'ziniki sifatida qabul qilib, seviklisidan hech qanday ranjish tuymayapti. Aksincha, mana bag'rim, unga istaganingizcha tig' sanchavering, deya ko'ksini o'zi ochib bermoqda.

Sizga bu jon,
Oy yuzligim,
Mumkin
 tutmoqlik to'pga.
O'zinniki baxtsizligim,
Sizdan
 qilmayman o'pka.

Yuqoridagi mavzuning izchil davomi sifatida sevgisi javobsiz qolib, baxtsizlikka uchragan bo'lsa hamki, "Oy yuzligi"dan also o'pkalamasligini, bilaks, uning jonini to'pga tutsa ham rozi ekanini ta'kidlayapti.

Sovurmoq ham
 sekin-asta
Mumkin
Mening kulimni.
Yaqin kelib
 bir nafasga,
Tutsangiz bas,

Qo'limni...⁶⁶

Ana, nihoyat, oshiq so'nggi so'zini aytdi, bag'riga tig' sanchsa ham, jonini to'pga tutsa ham, kulini ko'kka sovursa ham mayli, bundan sira ranjish tuymaydi, o'pka qilmaydi, faqat bir nafasga bo'lsa ham yaqin kelib, qo'lidan tutib qo'ysa bas... Oshiq uchun bundan ortiq baxt bormi?!

Ushbu she'rning davomi sifati ko'riladigan "U meni..." bitigi oshiqning dildoriga qilgan biroz achchig'i bilan boshlanadi:

U meni sevadi, deb,

U meni kutadi, deb,

U meni izlaydi, deb

O'ylaysizmi

Gohida?!

Oshiq yorni jonidan ortiq ko'radi, sevadi, ardoqlaydi. Ammo ma'shuqa oshiqning dil rozlariga, tinimsiz yo'llariga to'shayotgani muhabbatdan, ishqdan, sog'inchdan, mehrdan tikilgan poyondoziga e'tiborsiz. Suyuklisining bir so'ziga, so'z nima, bir imosiga mahtal necha ming yillarni o'tkazgan yigit nihoyat kun kelib biroz gina qildi. Shunda ham sekingina – beozorgina:

Men

Yuragim qon bo'lib,

Qismatdan

hayron bo'lib,

Yotibman

sarson bo'lib –

Qora tunnning chohida...⁶⁷

Mana manzara, oshiqning chinakam ahvoli. "yuragi qon", "qismatidan hayron" holda tunmi kun anglay lmay, birday tun hisoblab sarsonalarcha yotibdi bag'rini yerga berib. Ammo keyingi "Sizdan...", nomli she'rda o'z qilgan aybini "yuvib" yuboradi:

⁶⁶ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарқ. Т. 1994. Б. 5

⁶⁷ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарқ. Т. 1994. Б.12

Sizdan go'zali yo'q,
Sizdan yaxshisi yo'q –
Siz bitta yaralgan
mening baxtinga.

Sizdan nozigi yo'q,
Sizdan nozligi yo'q –
Siz bitta yaralgan
mening baxtinga.

Yorni go'zallikda, chiroyda, ibo-yu hayoda tengsiz – “sizdan yaxshisi yo'q” qabilida o'xshatishlar she'riyatda ko'plab uchrasa ham, uni yaxshilikda yakrang ko'rish juda kam uchraydi. Omon Muxtor she'rlari shunisi bilan xarakterliki, u ozor berayotgan go'zalning jabrlarini ham ko'ziga surta oladi. Uning dunyoda yakka ekaniga, aynan o'zining baxtiga shunday ekaniga qattiq ishonadi. O'quvchida yorining o'zi chindan beozordur-da, qabilida fikr uyg'onmasin uchun ham gap orasida juftining ham firoqlari borligini (“Sizdan nozligi yo'q...” qistirib o'tadi.

“Siz haqda...” she'ri shoirning sevgiga muyassar bo'lganlar tilidan aytilgan eng shirin kalomlardan tarkib topgan:

Siz haqda
O'ylay qachon –
Ertalabmi,
kechqurun?
Kun yarmida
O'ylaymi,
O'ylayinmi
yarim tun?

Oshiq o'zini biroz telbalikka solib, ma'shuqadan u haqda qachon o'ylasa bo'lishligini so'rab turibdi – “ertalabmi”, “kechqurun”mi yoki “yarim tun”?!
Birlashtirib

barini,
O'ylasam-chi,
Har soat?
Axir,
sizdek parini –
O'ylamoqlik
Saodat.

O'ylasam-chi,
Har lahza,
Har soniya –
Qo'ymasdan?..
Qalbingga
tushgach larza,
Bo'lmas ekan
Kuymasdan...⁶⁸

Keyin o'z savoliga o'zi javob berganday bo'lib, buni ham (har ehtimolga qarshi!) yordan so'rab qo'ymoqda. Aslida bu so'rovlarning zamirida har bir oshiq yurak boshdan kechiradigan holatlar – kun-u tun hayolning sevgilida bo'lishi, har soniya, har lahza u haqda o'ylashi – yotgan bo'lsa ham, bu o'zgacha uslubda, go'zal holda, o'quvchi yuziga tabassum, qalbiga shukuh kirgizadigan yo'sinda bayon qilinayotgani diqqatga sazovor.

So'zimiz boshida aytib o'tganimizday, Omon Muxtor she'riyatida sevikli yor, dildor obrazi nihoyat darajada ulkan hurmat bilan qalamga olinadiki, buni boshqa ijodkorlar ijodida uchratish mahol. Uning istalga ishq haqidagi, muhabbat to'g'risidagi she'rini olib qarang, baribir, hammasida suyukliga nisbatan cheksiz qadrning guvohi bo'laverasin. Tepada tahlilga “tortgan”larimiz xamiruchidan patir. Unday ash'orlarni yana yuzlab misol keltirsa bo'ladi. Mana oddiy lavha. Oshiq ma'shuqani kutyapti. Bir kun, ikki kun, uch kun... o'n kun... Ma'shuqadan

⁶⁸ Мухторов О. Минг бир киефа// Шарк. Т. 1994. Б.70

darak yo'q. Istalgan oshiq uni ayblashga, bemehrlikda, toshbag'irlikda, harsangyuraklikda aybsitadi. Faqat Omon Muxtor tasavvuridagi oshiq emas, uning "oshig"'i Farhoddan-da mulohazakor, Majnundan ham sadoqatli, sahovatli:

Nega jimsiz?

Xastalanib qolmadingizmi?

(Savolni qarang, ma'shuqa izsiz yo'g'-u, oshiqning tinchi yo'q. O'zining qayg'usi qolib, uning sihati bilan andarmon)

Yo

Shunchaki

bizni esga olmadingizmi?

(Yo'q, bu yerda gina-kudratga izn yo'q, shunchaki, hol so'rash ma'nosida aytilingan gap. Oshiqqa muhimi, sevganining ayni damdagi holati)

Nega jimsiz?

Ro'y berdimi

Bir dilsiyohlik?

Qovjiratib qo'ydingiz-ku

meni qiyohdek!

(Oshiq hayron, o'zi bilmagan holda yorini xafa qilib qo'ymadimikin, shundan ozurda. O'zining giyohdek qovjirab qolgani esa ikkinchi darajadagi muammo!)

Siz – hayotim!

Mening bilgan –

Qalb ehtiyojim!

Nega jimsiz?

O'ylamasdan

yo'qdir

Ilojim!..⁶⁹

(“qalb ehtiyoji” – naqadar latif o'xshatish?!)

⁶⁹ Мухторов О. Минг бир киефа // Шарқ. Т. 1994. Б.73

Omon Muxtorning o'zi Ayolning nega bu qadar asarlarida ulug'lanishiga to'xtalib o'tar ekan, shunday esalaydi:

“... Qayoqqadir shoshib chiqib ketayotgan Zulfiya opa o'z yo'lida bexos to'xtab, negadir aftimga qaradi. Biron yerda hikoyamni o'qigan bo'lsa kerak, jilmayib:

- Bizga qachon hikoya berasiz, yigit? – dedi.

Men dovdirab qolib, arziydigan bir narsa yoza olsam, deb chaynaldim.

- Sizga bir xafta muxlat. Hikoya olib kelasiz! – dedi Zulfiya opa qat'iy.

Shu kundan “Saodat” jurnalida mening muallifligim boshlandi. Opaning oldida xijolat chekmaslik, mas'uliyat hissi meni ma'lum darajada “pishitgan”dek bo'ldi. O'sha yillari jurnalda bir qator hikoyalarim bosildi. Uch-to'rt oy “uzoqlashib” ketsam, qayerda bo'lsin, Zulfiya opa duch kelganda yangi bir narsa yozishga undar edi. U faqat meni emas, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimovlarni ham shunday “ishlatgan” deyish mumkin.

Mana shu davrda AYOLLAR MAVZUYIga e'tibor berish xayolimga o'rnanishidan, keyinchalik bu mavzuda bir dasta she'rlar, yana hikoyalar yozdim. Qissa va romanlarimda AYOLLAR OBRAZIga mehr bilan yondashishni o'rgandim. Bu – men uchun Zulfiya opadan bevosita olingan saboqdir”.⁷⁰

Shunday qilib ayollar mavzusi, ularga nisbatan o'z asarlarida saqlangan, oshkora etilgan cheksiz hurmat, mehr-muhabbat, e'tibor, qadr-qiyamat Omon Muxtor ijodini butunlay qamrab oldi. Har qanday asar yozmasin ayol qahramoniga o'zining eng yaqin kishisiga qaraganday qaradi. Xoh u Gulxumor bo'lsin, xoh Halima bo'lsin, Guli, Davlatbaxt, Notanish go'zalmi – baribir, hammasiga o'zgacha yondoshdi, alohida mehr ko'rsatdi. Sevgi haqida to'lib-toshib yozar ekan, xijronni o'z qalami bilan bag'rini tilib, butun xalqqa “sharmisor” etar ekan, hatto, yoridan ozorlanib, jabr ko'rib tursa ham sira o'z qarashlaridan chekinmadi, bu ma'sum, munis, ojizalarni ko'ngil mehrobida saqladi:

Ko'zlarim –

Ko'zlaring

⁷⁰ Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.87

o'ngida!
Men
Seni sevgancha
yangidan –
Aylandim
Yo'llarning changiga...⁷¹

⁷¹ Мухторов О. Минг бир қиёфа // Шарқ. Т. 1994. Б.86

Umumiy xulosalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Omon Muxtor ijodi bugungi kun o'zbek adabiyotida qalam tebratayotgan ijodkorlarga har tomonlama o'rnak bo'lishga arziydigan o'ziga xos olamdir. Har bir shaxs o'z fikri, mulohazasini yoritayotgan mavzusi bo'yicha to'plagan bilimlari, qarashlari, o'y-hislari, qolaversa, o'sha nutq qilinayotgan davr ruhiyatidan kelib chiqqan holatda bildiradi. Ayniqsa, davr ruhiyatini to'g'ri tushunish, anglash hammaning ham birdek qo'lidan kelavermaydi. Ba'zan esa davrning buzuvchiliklarini teran his qilgan farzandlarini "davr"ning o'zi boshiga yetadi. Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosirlar taqdiri buning yaqqol misoli bo'la oladi. Ularning muhitga nisbatan qilgan to'g'ri tanqidlari qabul qilinmay, har bir so'zi boshlariga to'qmoq bo'lib urilgani hech kim uchun sir emas. Ayni yozuvchi-shoirlarning izdoshi bo'lib bo'y ko'rsatgan ijodkorlarning biri sifatida Omon Muxtorni ham olishimiz mumkin. Uning o'tgan asr 90-yillarida qilgan ijodini titkilar ekanmiz, ularda davrdagi chirkin hislar, erksizlikning alamlari mahorat bilan, ta'bir joiz bo'lsa, qattiq nafrat bilan yoritib beriladi.

Yozuvchi asar yaratar ekan, o'z yozmasida ko'rgan-kechirganlari, kimningdir boshidan o'tganlarini eshitgani xususida qalam tebratadi, asosan. Ammo Omon Muxtor qalamiga mansub bo'lgan "Ming bir qiyofa" ijodkor tasavvuri, xayoli, falsafasining mahsuli bo'lib yaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, undagi voqeliklarning ko'plariga inson ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay qolsa, ko'plari faqat tasavvurdagina bo'ladigan, ammo asarda nimagadir ishora tarzida qo'llangan, yana ko'plari diniy ta'limotimiz nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tuzilgan "marjon"dir. Unda insonning umri, undan keyin qabrdagi hayoti va nihoyat qayta tirilishi yoritib berilgan. Bu jihatlari, o'z ruhi bilan roman Markesning "Yuz yil tanholikda" hamda Bulgakoning "Usta va Margarita" romanlariga ancha yaqin turadi.

Omon Muxtor she'riyatida sevikli yor, dildor obrazi nihoyat darajada ulkan hurmat bilan qalamga olinadiki, buni boshqa ijodkorlar ijodida uchratish mahol. Uning istalga ishq haqidagi, muhabbat to'g'risidagi she'rini olib qarang, baribir,

hammasida suyuqligiga nisbatan cheksiz qadrning guvohi bo'laverasin. Tepada tahlilga "tortgan"larimiz xamiruchidan patir. Unday ash'orlarni yana yuzlab misol keltirsa bo'ladi. Mana oddiy lavha. Oshiq ma'shuqani kutyapti. Bir kun, ikki kun, uch kun... o'n kun... Ma'shuqadan darak yo'q. Istalgan oshiq uni ayblashga, bemehrlilikda, toshbag'irlikda, harsangyuraklikda aybsitadi. Faqat Omon Muxtor tasavvuridagi oshiq emas, uning "oshig"'i Farhodan-da mulohazakor, Majnundan ham sadoqatli, sahovatli.

Omon Muxtor siymosini men hamisha hokisor, o'ychan, uzoqlarga tikilgancha nim tabassum qilib turgan holida tasavvur qilaman. Uning nasri qanchalar xayolot "ummon"ining ko'piklaridan tarkib topgan bo'lsa, nazmi undan sira qolishmaydi. Omon Muxtor ham, asarlari ham sirtdan qaragandan tinch, osoyishta oqayotganday taassurot uyg'otadigan okean suvi bo'lsa, u istalgan paytda girdoblar xosil qilishi va yoki kuchli to'lqinlar yasab, shovqin ko'tarishi mumkin – uning hamma sir-u asrori suvning ostida.

Ushbu so'zlar "g'or ketmasin" uchun adibning adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonov bilan qilgan suhbatlarida aytgan bir gapini keltirib o'tay: "... Bilasiz, men Mustaqillikni baxt deb bilgan, bu kungi katta o'zgarishlar qadriga yetgan, hozirgi olib borilayotgan siyosatga yuz foiz hayrixoh kishiman".

"Yashirmayman, asosan, Mustaqillik yillari yozuvchi sifatida ko'proq tanildim. Olifta gap emas, men uchun shu Vatan, shu Xalqdan aziz narsa yo'q. Nimaiki yozmay, Vatan ozodligi va obodligi, Xalqning yanada, boridan ham ziyoda, ko'rkam hayot kechirishini orzu qildim. Birodarlarim qatorida, kuch-qudratim yetgan darajada qalam tebratayapman".⁷²

Omon Muxtor she'riyati ham, sochmalari kabi o'zgacha ruhiyat bilan yozilgan. Unda, ayniqsa, yor tasviriga nihoyat darajada ehtirom bilan munosabatda bo'linganining, hurmati, qadri osmonlar bilan tenglashilganining guvohi bo'lamiz. Olloh tomonidan biz uchun kaftimizda tutib avaylash, e'zozlash uchun yaratilgan ojizalarning qiymatini har qancha ko'targani unga bo'lgan, qarashlariga bo'lgan samimiy munosabatni oshirishi tayin.

⁷² Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // O'zbekiston. T. 2011. Б.261-262.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Ижтимоий-сиёсий адабиётлар:

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. –Т.: Ўзбекистон, 1995.- 336 бет.
2. Каримов И. А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат қилсин. Т. – Т.: Ўзбекистон, 1998. -30 б.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. -176 б.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.:Ўзбекистон, 2008. -80б.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.; Ўзбекистон. 2001. -39 б.

II. Илмий адабиётлар:

1. Адабиёт ва замон (мақола, очерк, адабий портретлар). Т.; Адабиёт ва санъат, 1980.-368 б.
2. Адабиёт ва замон Мақоллар, адабий ўйлар, суҳбатлар. -Т.; Адабиёт ва санъат, 1981.-339 б.
3. Адабиёт ва санъат. Адабий-танқидий мақолалар. –Т., Адабиёт ва санъат, 1988.-279 б.
4. Адабиёт назарияси: II томлик. Т.1. Адабий асар. -1978.-416 б. Т.2. Адабий тарихий жараён. -Т., 1979.-445 б.
5. Адабий турлар ва жанрлар: Уч жилдлик. –Т., Фан. 1991-1993. Т.1. Эпос. 1991. -384 б.
6. Алиев А. Истиқлол ва бадиий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997. -272 б.
7. Аристотель. Поэтика. -Т., Адабиёт ва санъат, 1980. -150 б.

8. Бадиий ижод ҳақида. -Т., Ўздавнашр, 1960. -274 б.
9. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. Т., Фан, 1994. -162 б.
- 10.Имомов К., Мирзаев Т. ва бошқ. Ўзбек халқ поэтик ижоди. –Т., Ўқитувчи, 1990. -304 б.
- 11.Назаров Б. Ўзбек адабий танқидчилиги. Гоявийлик, метод, қаҳрамон. –Т., Фан, 1979. -285 б.
12. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. - Т.: Маънавият, 2000.-112 б.
13. Норматов У. Насримиз уфқлари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1974.-224 б.
14. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. Т.: Университет, 2007.-172 б.
- 15.Қуронов Д. “Адабиёт надир” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. – Т.: Зарқалам, 2006. -127 б.

III. Бадиий адабиётлар:

1. Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати. Романлар ва ҳикоялар. –Т., Шарқ, 1997. -386 б.
2. Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши // О'zbekiston. Т. 2011. -346-б
3. Мухторов О. Минг бир қиёфа // Шарқ. Т. 1994. -114-б
4. Мухторов О. Эркин учаётган куш // Шарқ. Т. 1991. -86-б
5. Мухторов О. Афлотун // Ғ.Ғулом. Т. 1998. -164-б
6. Мухторов О. Тўрт томон қибла // Шарқ. Т. 2001. -308-б.

IV. Газета ва журналлар:

1. “Ёзувчи” газетаси. – Тошкент, 2004. – 1 дек. - №6-7 (135).
2. “Ёшлик”. –Тошкент, 2004/ 3 (195)
3. Муқимов Р. Айтилган сўзга масъулмиз // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1987. – 31 июль.
4. “Туркистон” газетаси. – Тошкент, 2004. - 19 янв.
5. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Тошкент, 2007 йил. - 26 окт. - №43.

6. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Тошкент, 2008. - 11 апр. - №15.
7. Шарқ юлдузи(turli sonlari).